

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



“SALOHIYAT MEZONI”

12

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI

MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT
ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI KAFEDRASI

ILMIY MAQOLALAR

TO'PLAMI

«SALOHIYAT MEZONI»

12-SON



NAMANGAN-2018

Mazkur maqolalar to‘plami Namangan Davlat universiteti Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta`limi kafedrasining 2018 yil 6 yanvardagi yig’ilishida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

Mas’ul muharrir: f. f. n. , dotsent O. Mamatov

Taqrizchilar: t.f.n., dotsent T. Qozoqov, t.f.n., dotsent Z. Haydarov

Ilmiy to‘plam Namangan Davlat universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2018 yil 10 yanvar kungi 1-sonli yig’ilishida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.



© NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI, 2018 YIL

Milliy mafkurada tarixiy xotiraning o'rni

Obidxon Mamatov,

Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi
kafedrasi mudiri, f.f.n.

Milliy g'oyaning ma'naviyatning, aql-idrokning qudratiga tayangan uzoq o'tmishimiz Sharq va G'arbning buyuk mutaffakirlari ifodalagan g'oyalalar bilan uyg'unlashuvi muhim ahamiyatga ega. Vatan, mustaqillik g'oyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Milliy mafkurani shakllantirishda Turkiston xalqining tarixiy qadriyatlaridan, urf odatlaridan, an'analaridan unumli foydalanish kerak. Chunki, birinchidan, o'z milliy qadriyatlarini bilmagan xalq, ertasini ham bilmaydi. Ikkinchidan, Markaziy Osiyo fani, madaniyati butun insoniyat tarixida yirik o'rinni tutadi. Masalan, O'rta asr Sharq falsafasi butun jahon madaniyati tarixida yirik o'rinni tutadi. Shuning uchun ham G'arbda madaniyatning taraqqiy qilishiga katta ta'sir ko'rsatgan Sharq uyg'onish davri ma'naviy taraqqiyotda butun insoniyat uchun vorislikning yorqin namunasidir.

Sobiq Ittifoq davrida Sharq xalqlarining jahon taraqqiyotiga ta'siri kamtsitilib ko'rsatildi. «Mutafakkirlarimiz yaratgan asarlarga, ta'limotlarga noxolisona baho berilib, ulardagi ijobiliy, umuminsoniy mazmun to'la payqalmadi, ma'naviy milliy madaniyatimizning butun bir qatlamlari, yo'nalishlari diniylikda, bid'atchilikda ayblanib, xurofotda, idealizmda ayblanib, ularni jiddiy tarzda o'rganishga molik deb hisoblanmadi»¹. Lekin, undan jahon xalqlari hanuz foydalanib kelmoqdalar. Ulug' davlatchilik siyosati ostida milliy, ma'naviy omillarga umuman e'tibor berilmadi.

Shunday bo'lsada, milliy qadriyatlarning umuminsoniylik darajasiga ko'tarila olgan qismi bugungi kunda siyosiy mustaqillik tufayli milliy mazmun bilan yanada takomillashtirilmoqda. Hayotimizda umuminsoniy qadriyatlarga intilish bilan birga Sharq falsafasi shunday o'rinni topayaptiki, oramizda yana qaytadan musulmonchilik, xalqimiz soddagina qilib o'zbekchilik deb aytadigan

¹ Jalolov A. Ma'naviy bisotimiz qalbi // Muloqot. 5/6. 1995.-B.17.

mehru oqibat, o'zaro yordam va hurmat, o'zgalarning dardiga hamdard bo'lish kabi oljanob fazilatlar qaror topmoqda.

Gap milliy mafkura xususida borar ekan bizning o'tmish ajdodlarimiz mafkurasinga qayta-qayta murojaat qilishimiz bejiz emas. Chunki mafkura shakllanishida avval ta'kidlab o'tkanimizdek, ijtimoiy ruhiyat muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ijtimoiy ruhiyatdan kelib chiqib, shakllantirilgan mafkura esa, inson qalbini tezroq va chukurroq egallaydi. O'zbekning ijtimoiy ruhiyati esa, bir yoki ikki asrda shakllanib qolgan emas. U o'zining jahon tsivilizatsiyasidan ortiq bo'lsa ortiqki, kam bo'limgan tarixiga ega. Ijtimoiy ruhiyat o'zida xalqning tub maqsadlarini, nozik his-tuyg'ularini mujassamlashтирди. Buyuk bobokalonlarimiz ta'limotlarida xalqning nozik his tuyg'ulari ruhiyati aks etган.

Millatning ruhiy ma'naviy xususiyatlari tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi. O'zbekistonning mustahkam davlatchilik siyosati yuksak vatanparvarlik ma'naviyati uzoq tarixga borib taqaladi. Shuning uchun ham milliy mafkuraning shakllanishi, uning yoshlar ongidan chuqur o'rin egallashida tarixiy xotira muhim ahamiyatga ega. Millatning uyushuvi uning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi ham tarixiy xotira bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun ham turkiyalik olim, professor Usmon Turon tarixiy xotirani millat rivojidagi o'rniغا, belgilovchi o'rinni ajaratadi. Jumladan: u shunday yozadi: «Bashariyat xofizasida mavjud bo'lgan tarix shuurda yashar ekan, millatlar shaxsiyatini o'stirishga, madaniyat va mafkuralarni quvvatlantirishga xizmat qiladi. O'z xalqi tarixini bilmagan millatlar xotira va idroklarini yo'qotib qo'ygan dovdirlarga o'xshaydi. Bu alpozda yashayotgan millatlarning yuksalishiga yoxud o'zligini muhofaza etishlariga, hatto ularning tarqalib ketmasligiga kafolat yo'q».²

Milliy mafkurani shakllantirishda hamda yoshlarda vatanparvarlik xissini uyg'otishda O'zbekiston tarixini haqqoniy yoritish, uni yoshlarning ongiga singdirish muhim. Har qanday milliy g'urur, vatanparvarlik tarixni o'rganishdan boshlanadi.

Inson qayerda bo'lmasin o'z tarixi bilan faxrlanishi, buyuk xalqning farzandi ekanligi, uning jahon madaniyati, insoniyat tarixida tutgan o'rni bilan g'ururlanishi, unda o'z Vataniga bo'lgan mehr-

² Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi . T.: 1995.-B.5.

muhabbatini yanada oshiradi, ruhiyatini ko'taradi. «... boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta tarixiy xotira kerak». ³

Ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida tarixni o'rganish hukmron mafkura, ya'ni kommunistik mafkura g'oyalariga bo'yundirilgan edi. O'zbek xalqining buyuk o'g'lonlarini butun dunyo e'tirof etgan holda, shu tarixning o'z o'g'lonlari ota-bobolarimiz haqida deyarli hech narsa bilmas edik. Ular yo idealizm, yo bosqinchilikda ayblanardi. Nari borsa ularning tarixdagagi xizmatlari chetlab o'tilardi.

Chunki millatlar tarixini haqqoniy yaratish, ularga xolisona baho berish «millatlarning qo'shilib ketishi», «millatlarning yo'qolib borishi», «yagona sovet xalqi» to'g'risidagi bir qator mafkuraviy tamoyillarga zid kelardi.

Ana shunday bir davrning o'zida bu buyuk o'g'lonlarni butun jahon tan olib bo'lган edi. Ularning buyukligini hattoki mafkuraviy dushmanlarimiz ham e'tirof etishgandi. Masalan: Yevropatsentrizm tarasfdori Gezel ham o'rta asr falsafasining (xususan Farobi, Ibn Sino, Beruniy- M.O.) G'arb uyg'onish davriga ta'sirini e'tirof etishga majbur bo'lган edi.

Sovet davrida ham har qanday mafkuraviy tayziqqa qaramay, o'z hayotlarini xavf ostiga qo'yib bo'lsa ham, o'zbekning jasur, millat sevar o'g'lonlari I. Mo'minov, M. Xayrullaevlarga Sharq uyg'onish davri, xususan, A.Temur, Farobi, Ibn Sino, Beruniy va boshqalarning fan tarixidagi, madaniyat va jahon xalqlari tarixidagi o'rirlarini yoritishda katta jasorat ko'rsatdilar. Albatta ularning asarlarida mafkuraviy ta'sirining izlarini ko'rsakda, millat va xalq dardi, vatanimiz tarixini xalqqa yetkazish dardi kuchli ekanini ularning asarlaridan sezilib turadi. Ularning asarları buyuk millatimizga nisbatan mehr uyg'otadi.

Mafkurani shakkantirishda, vatanparvarlik harakatlari, ma'rifatparvarlik harakatlari, milliy ozodlik harakatlari bilan qo'shilib ketganligini e'tiborga olish kerak. qaerda milliy ozodlik harakati bor ekan, o'sha yerda albatta ma'rifatparvarlik masalasi bo'ladi. Chunki, biror xalqni tutqinlikda ushlab turuvchi mafkura bu xalqning ongingin rivojlanishi uchun yo'l bermaydi. Jamiatuning ilg'or kishilari hukmron mafkuraga qarshi ma'rifatni qo'yadilar. Qulligini anglagan qul - qul emas. Endi u – kurashchi.

³ O'sha joyda. 8-bet.

Asrimiz boshidagi milliy ozodlik harakatlari ham aynan ma'rifatparvarlikdan boshlangan edi. Ma'rifatparvarlik mafkurasining faol oqimlaridan biri bu - jadidchilik edi. «Jadidizmni o'rganishda unga aqidaparastlik bilan yondashish, materiallarini ilmiy tahlil qilish va nazariy umumlashtirish o'rniga oddiy izohlash, dalillarni partiya va davlat xujjalarda berilgan oldindan ma'lum bo'lган bahoga moslashtirish kabi xatolarga yo'l qo'yildi. Bu hol jadidlar harakatini millatchilik harakatidir, deb bir tomonlama buzib ko'rsatishga olib keldi.”⁴

Aslini olganda bu milliy vatanparvarlik harakati edi. Masalan, M.Behbudiy o'z maqolalarida xalq ommasiga murojaat qilib muhitoriyatni himoya qilishga chaqirdi. «Turkiston xalqi ittifoq etsa qon to'kilmas, yer va omlok ham taqsim bo'lmay qolur. Din ham rivoj topur... Butun Turkiston ittifoq etsa 15 millionlik bir quvvat imloga qolur-ki, bunga yer titraydur»⁵, – deb yozadi Behbudiy.

Jadidchilik O'zbekistonda ma'rifatning yoyilishiga ilm fanning ravnaqiga katta ta'sir o'tkazishi bilan bir qatorda, ijtimoiy taraqqiyotga ham katta ta'sir o'tkazdi. Shuningdek, «... milliy ozodlik mafkurasining vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etdi»⁶.

Namangan viloyati moddiy madaniy yodgorliklari

B.Ro'zinov,

Namangan shahar 66-maktab o'qituvchisi,
viloyat “Ajdodlar merosi” jamoatchilik fondi a'zosi

O'tmishda Turon, Movarounnahr, Turkiston, hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni Ota makonimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon tsivilizatsiyasi beshikla-ridan biri bo'lganligini butun jahon tan olgan. Bu qadimiylar va tabarruk zamindan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu yurtda yaratilgan, sayqal topgan. Qadim-qadimdan Ota yurtimizda

⁴ Vohidov.X. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati. // O'zbekistonda ijtimoiy falsafiy fikrlar tarixidan. T.: 1993.-B.221.

⁵ O'sha joyda. –B.232.

⁶ Alimova. D. Haqiqatning tutash manzili // Tafakkur, 2000.-№ 2.-B.59.

dehqonchilik, hunarmandchilik, me'morchi-lik, shaharsozlik madaniyati yuksak bo'lga-nidan dalolat beruvchi misollarni sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi.

Dunyoda o'zbekning qo'lidan kelmaydi-gan ish yo'q. Qozoqning buyuk oqini Abay e'tirofini hech kim inkor eta olmaydi: «O'zbeklar yetishtirmaydigan va mo'l hosil olmaydigan ekinning o'zi yo'q, yer yuzida o'zbek savdogarining oyog'i yetmagan joy yo'q, o'zbeklar uddalay olmaydigan ishning o'zi yo'q... O'tkir zehn, mahorat, abjirlik va tadbirkorlik – bularning hammasi o'zbek-larga xos xususiyatdir». Qalmiq adibi David Kugultinov aynan yuqoridagi fikrga tan berib, shunday yozgandi: «Xudo o'zbek-larga saxiy va tunganmas xazina misol za-min, ana shu zamin singari saxiy va mu-ruvvatli ma'naviyat, go'zal til va jahonga tativlik buyuk madaniyat berdi. Bunchalik katta merosga egalik qilish yer yuzidagi hech bir xalqqa nasib etmagan».

Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz». Bugun biz tarixiy bir davrda – xal-qimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, av-valambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan za-monda yashamoqdamiz.

Hozirgi Namangan viloyati hududida tavallud topib, ilm-fan, adabiyot va san'at taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan alloma ajdodlarimiz xususida gap ketganda, Asi-ruddin Axsikatiy, Bob Farg'oniy, Mavlono Poyanda Oxun Axsikatiy, Maxdumi A'zam Kosoniy, Mavlono Lutfulloh, Boborahim Mashrab, Ishoqxon Ibrat, Xilvatiy, Majzub Namangoniy, Munshiy Kosoniy, Nodim Namangoniy, Muhammadsharif So'fizoda, Rafiq Mo'min, Usmon Nosir, Chustiy, Turg'un Po'lat, Habib Sa'dulla singari ko'plab ulug' insonlar, ma'naviyat darg'alari nomlarini yodga olamiz.

Namangan viloyatida jami 250 dan ortiq moddiy madaniy meros ob'ektlari mavjud. Ana shu ulug' merosni jiddiy o'rghanish, uni avaylab-asrash va kelajak avlodlarga benuqson yetkazish barchamizning sha-raflari va mas'uliyatli burchimizdir.

Namangan viloyat madaniy meros ob'ekt-larini muhofaza qilish va ulardan foydalanish davlat inspeksiysi tomonidan qurilish

maydonidagi muntazam kuzatuvlar natijasida ayrim xulosalarga kelindi. Asrlar davomida yig'ilib qolgan madaniy qatlamlar chiqurligi 10 – 11 metrlarga yetadi. Hozirgi kundagi asosiy topilmalar Somoniylar va Qoraxoniyalar davriga man-sub bo'lган sopol buyumlar qoldiqlaridan iboratdir. Topilmalar orasida Namangan-dan Buyuk ipak yo'li o'tganligini tas-diqllovchi Vizantiya imperiyasining rangli shisha siniqlari va ko'fiy yozuvli sopol idish parchalari ham bor.

Shu bilan birga, ob'ektdan ko'hna Axsikentda tayyorlangan shisha idish parcha-lari, turli o'lchamdagisi sopol quvurlar namunalari ham topildi. Bu arxeologik topilmalar Namangan shahrining yoshi kamida 1000 – 1100 yillarga yetkazadi.

Huquqiy munosabatlar tushunchasi

*Akmaljon Sultonov,
Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi kafedrasи magistranti.*

Umumiylar huquq nazariyasida huquqiy munosabatlar o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lган sub'ektlar o'rtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqa sifatida ta'riflanadi. Darhaqiqat, hayotdagi mavjud ijtimoiy munosabatlar huquqiy normalar yordamida tartibga solinadi. Shunday ekan, ijtimoiy munosabatlar umumiylar nazariya fani nuqtai nazaridan qaraganda doimo huquq normalari bilan bog'liq holda uchraydi. Zotan, ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari yordamida tartibga solinadigan qismi huquqiy munosabatlarni tashkil qiladi. Huquq normalari esa o'z vazifalarini huquqiy munosabatlar orqali amalga oshiradi. Aniqroq aytsak, ularni ijtimoiy munosabatlar shakliga aylantirish, ya'ni ularni tartibga solish orqali hayotga tatbiq etiladi.

Darhaqiqat, qonun bilan o'rnatilgan holatlar ijtimoiy munosabatlarga, jamiyat hayotiga ta'sir etmasa, bu munosabatlar huquqiy munosabatlarga aylanmaydi. Demak, ijtimoiy munosabatlarga huquq normalari ta'sir etsagina, ular huquqiy munosabatlarga aylanadi.

Yuridik adabiyotda bu borada bildirilgan fikrlarning umumiylar xulosasiga ko'ra, mehnat huquqi sohasidagi huquqiy munosabatlar—bu mehnat qonunchiligi normalari bilan tartibga solingan mehnatga

oid munosabatlar va ular bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lgan xodimlarning mexnatga doir munosabatlardan iborat. Boshqacha qilib aytganda, bu mehnat huquqi sub'ektlarining yuridik aloqasidir.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari doimiy ravishda mehnat huquqi normalari asosida faoliyat yuritadi.

Ta'kidlash joizki, mehnat huquqining predmetini tashkil etuvchi barcha ijtimoiy munosabatlar mehnat qonunchiligi normalari bilan yo'g'rilgan bo'lib, ular doimo mehnatga oid huquqiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatning har bir turkumi mazmuni jihatidan o'ziga xos huquqiy xususiyatga ega bo'lib, u davlatning normativ-huquqiy hujjatlari ta'siri natijasida kelib chiqadi.

Yuridik adabiyotda mehnat huquqining predmetini tashkil etuvchi munosabatlardan tashqari mehnat huquqi sohasidagi yana boshqa munosabat turlari xususida fikr mulohazalar ilgari surilmoqda.

Umumiy tarzda tan olingen va mehnat huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- 1) mehnatga oid huquqiy munosabatlar;
- 2) kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari bilan ish beruvchilar o'rtaсидаги ташкилий бoshqaruvga oid huquqiy munosabatlar;
- 3) ishga joylashtirishga doir huquqiy munosabatlar;
- 4) korxonada kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishga oid munosabatlar;
- 5) mehnat muhofazasini nazorat etishga oid huquqiy munosabatlar;
- 6) mehnat nizolarini ko'rishga oid protsessual huquqiy munosabatlar.

Bizning fikrimizcha, mehnat huquqi normalarining qo'llanilishi natijasida kelib chiqadigan munosabatlarning barchasini mehnatga oid huquqiy munosabatlar, deya ta'riflash maqsadga muvofiq.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mehnat huquqining mazmun-moxiyati va asosiy o'zagini xodimlarning mehnatga oid munosabatlari tashkil etadi.

Ularning boshqa munosabatlardan asosiy farqi shundaki, mazkur munosabatlar xodim mexnatining ishlab chiqarishda qo'llanilishi natijasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar sifatida namoyon

bo'ladi, chunki mehnat jarayonida unga nisbatan huquq normalari qo'llanadi. Natijada xodim mehnat sohasida muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlar uzluksiz davom etish hususiyatiga ega bo'lgani sababli harakat yoki topshiriq bajarilgach, yo'q bo'lib ketmaydi. Bu munosabatlar shu jihat bilan boshqa, masalan, fuqarolik huquqiy munosabatlaridan farq qiladi. Chunonchi, fuqarolik huquqiy munosabatlar topshiriq, pudrat shartnomasi, mualiflik haqidagi shartnomasi bajarilgach, tugaydi. Mexnat munosabatlari esa uzluksiz ravishda va belgilangan tartibda davom etaveradi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, barcha ijtimoiy munosabatlar sub'ektlarining yuridik aloqasi ularning tabiatini ifodalaydi. Bu esa ularning asosiy huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Sub'ektlarning huquq va majburiyatlar mehnat qonunchiligi normalari, jamoa kelishuvi va shartnomalari hamda xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasida nazarda tutilganini ham ta'kidlab o'tish lozim.

Qolaversa, mehnatga oid huquqiy munosabatlarning o'ziga xos yana bir belgisi mavjud. Bu mehnatga oid huquqiy munosabatlarning ixtiyorilik xususiyatiga ega ekani bilan izoxlanadi. Chunki, bunday ijtimoiy munosabatlar doimo sub'ektlarning xohish-irodasi tufayli vujudga keladi. Shunisi ham muhimki, barcha mehnatga oid huquqiy munosabatlar bir-biridan sub'ekti, uning mazmuni, mazkur munosabatlarni yuzaga keltirish, o'zgartirish va bekor qilish asoslari bilan farqlanadi. Bu haqda ushbu bobning keyingi sahifalarida ma'lumot beriladi.

Boburning ma'naviy dunyosi

Shohrux Kenjayev,
**Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat assoslari
va huquq ta'limi kafedrasи magistranti.**

Zahiriddin Muhammad Bobur inson va adib, madaniyat arbobi va sarkarda, e'tiqodi butun va taqvodor va shoh, rostguy adabiyotshunos va alamzada ota maqomida bag'oyat murakkab, ziddiyatlar to'lqini bilan yo'g'rilgan taqdir sohibi edi. Parvardigor unga saxiy qalb, ulkan yurak, sehrgar qalamu keskir qilich ato etdi. Ayni inoyatlar uning

hayot saxisalarini nurlantirdi, teran mohiyat va ma'no bag'ishladi. Asrlar to'foniyu bo'xronini pisand etmay, insoniyatning yangi – yangi avlodlariga yetib boruvchi mangulikni uning nasibasiga bitib qo'ydi. Bobur Mirzoning mangulik karvoni o'z qo'ng'iroq'ini jaranglatib, itlar tajovvuzini nazariga ilmay, hamon olg'a intilmoqda. Yillar va yo'llar o'tad, bezavol karvon esa poyoni yo'q boqiylik manzili sari intilishda davom etadi

Bobur Mirzo shoир, adib, she'rshunos – adabiyotshunos, donishmand faqih, tilshunos, tabiatshunos, mantiq va riyoziyot ilmlaridan puxta xabardor jamoat arbobi sifatida o'zidane bebaho ma'naqviy meros qoldirdi. Boshqa odamlarnikidan deyarli farq qilmaydigan mo'jazgina ko'ksida she'rning yuragi va jur'atini ko'tarib o'tgan bu mukrram zot aql bovar qilmaydigan kashfiyotlar Bilan yuzma – yuz yashab o'tdi, o'zidan sara ma'naviy xazina va nom qoldirish uchun ko'rashdi. U yaxshilik shaydosi edi. Oxirgi nafasigacha ezgalik yalovinit baland tutdi, farzandi Humoyun Mirzoga ham shu haqda vasiyat qildi

Kechiruvchanlik Bobur Mirzoga ato etilgan noyob ne'matlardan edi. U o'ziga jabr o'tkazgan, hatto xoinlik qilgan, ammo vaqt kelib o'sha ro'y়i – rost tanolib, afv etishni utingan musohiblarining gunohini kechib yuborgan. O'lmas "Boburnoma" va Gulbadanbeginning "Humoyunnoma"sidagi behisob lavhalar shunday qatsiy mulohaza uchu nasos beradi.

Bobur Mirzo, hatto, o'shanday nokas bandalarini rag'batlantirgan, ularga ba'zan katta lavozimlarni ishonib topshirgan. Dune azoyualri suyak suyagidano'tib ketgan ulug' sarkarda qolgan umrini taxt tashvishlaridan holi, Agradagi o'zi barpo ettirgan bog'da badiiy ijod zavqi Bilan o'tkazmoqchi edi. Shu orzu ham ruyobga chiqmadi. Hind sarkarldasi Ibrohim Ludiyning onasi tashabbuskor bo'lib ichkazilgan zahar, Bobtsur Mirzoninig o'z o'g'li Humoyun Mirzoniing hasta jismi atrofida tkomil sidq bilan qilagn qasami kuchini ko'rchsatdi. Uning toimrida oqayotgan jon jo'shqinlikni yo'qota boshlaydi. Xazon yaprog'i umr g'unchalariga soya tashladi. Tongning qutbida shomning turganligi ravshanlasha boshaldi. Ziyrap va sinchkov Bobur Mirzo joni rishtalarini o'zmoqqa shaylangan ajalning serpangan qilichiga ham mardonea peshvoz chiqdi. Hushi borida toju-taxtni suyukli to'ng'ich o'g'li Muhammad Humoyuun Mirzoga topshirdi. Ulug' shoирning mahzun yuragi so'ngi damlarda ham yaxshilikni qo'msadi.

O'sha ezgu tuyg'u holsiz jismning umid bilan termulayotgan joau ko'zlariga oxirgi nigohi bo'lib ulashildi. Bor kuchini to'plagan sheryurak Bobur safdoshu mulozimlariga, Humoyun Mirzoga oxirgi so'zini – vasiyatini aytdi. Uning tarix qavatlarida muhrlanib qolgan sshngi nidoasi ham yaxshilik haqida edi. Boburona shavqu shiddatli yurakda birbiriga ikki tuyg'uning baqamti kelishi, yonma – yon amal qilishi erkning hamisha yaxshilik tarafida bo'lib kelganligi mu'jiza.

Avvolam bor, Zahiriddin Muhammad Bobur o'z davrining farzandi, murakkab davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning, ziddiyatlarning g'oyaviy mafkuraviy qarashlar hukmron bo'lgan zamoning mahsuli. Binobarin, Bobur adabiy merosini, uning faoliyatini Ayni mezon bilvan ko'zatish, baholash zarur.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Zahiriddin Muhammad Bobur hurfikrli inson, ilog'or g'oyali ijodakor sifatida madaniyatning, ma'rifat va ma'naviyatning taraqqiyoti uchun, ezgu maqsadalrining tantanasi uchun kurashdi. Shu maqsadda umr bo'yи ibratli ishlarni amalga oshirdi, El ulusga naf, davlat – saltanatga foyda kltirdi. Uning birdan bir maqsadiinqirozga yuz tutgan temuriylar davlatini parchalanib ketishidan saqlab qolish va mustahkamlash, markziy Osiyoda markazlashgan yinrik davlat barpo etish edi. Ushbu niyati yo'lida u o'zoq va shiddatli kurashlar olib bordi, ammo muhit bunga imkon bermadi. O'zaro jangu jadallar, omonsiz to'qnashuvlar tufayli, yuz bergen omadsizliklar, ketma-ket mag'lubiyatlar uning o'z ona diyoridan bosh olib ketishga sabab bo'ldi. Endi u janub sari yurish byuoshladi. Afg'oniston va Hindistonni egallab, katta imperiya vujudga keltirdi. Bu tarixdagi Yangi bir saltanat – boburiylar satanati edi. Ta'kidlash joizki, u asos solgan imperiya Afg'oniston va Hindistonning madaniyati, iqtisodiy – mafkuraviy hayotida, umuman bumamlatlarning tarixiy taraqqiyotida o'chmas iz qoldirdi. Bugina emas, Zahiriddin Muhammad Bobur ha tomonlama yetuk barkamol shaxs sifatida dunyo xalqlari ma'naviy olamida ham sezilarli iz qoldirgan siymolardan biridir. Alhol, umumbashariy fazilatlar sohibi va ezgu g'oyalar targ'ibotchisi bo'logan vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburni, biz, haqli ravishda jahoniy siymo deymiz. Va bunda aminmanki, hech qanday milliy mahdudlik yo'q. Buning Yana bir dalili shuki, bobokolonimizning hayotiy chog'laridayoq boy adabiy meroslari va serqirra faoliyatlarini teran tadqiq etish, atroficha

o'rganish uchun ko'plab mamlakatlarning atoqli olimlari ilmiy izlanishlar olib borganlar.¹

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining favqulodda nodir iste'dodi, beqiyos insoniy salohiyati bilan haqli ravishda jahon ahlining hayrat va ehtiromiga musharraf bo'ldi. Ayni fazilatlari bilan u millatimizni, xalqimizni butun olamga tanitdi. Va shu bois u millatimizning, xalqimizning iftixor bayroqlaridan biriga aylandi.

Dunyodagi ne-ne fozil insonlar uning haqida to hanuz hayrat va e'tirofga to'la hikoyalar so'zlaydilar. Va, u tarixda kamdan kam uchraydigshan favqulodda hodisa deganlar. Erskin, Eduard Xalden kabi Yevropa olimlari Boburni tarixdagagi o'sha vaqtлага qadar bo'lgan lashkarboshi, diplomat, davlat arboblarining eng atoqlilaridan biri deb ataganlar. Ular Bobur tomonidan adabiyotga, fanga kiritilgan buyuk hissasini hayajon bilan qayd qiladilar.

Ma'naviy va huquqiy tarbiyada oilaning o'rni

*Akmaljon Sultonov,
Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi kafedrasi magistranti.*

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, uni mustahkamlash va shuning asosida yangi huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo'liga o'tdi. Mustaqillik tufayli respublikamiz ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy hayotida juda katta tub o'zgarishlar ro'y berdi. Istiqlol xalqimizning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Yurtimiz tarixi, qadimiylar madaniyatimiz tiklanmoqda va oliy qadriyat nufuziga ega bo'lmoqda.

Ayniqsa, mustaqillik yillarda respublika hukumati tomonidan yosh avlod ta'lim tarbiyasi va ma'naviy kamolotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada 1998 yilning oila yili deb, 1999 yilini – Ayollar yili deb, 2000 yilni – Sog'lom avlod yili deb, 2001 yilni Onalar va bolalar yili deb, 2008 yilni Yoshlar yili deb, 2010 yilni esa Barkamol avlod yili deb nomlanishi ham tahsinga sazovordir.

Yosh avlodning ma'nani barkamol bo'lib tarbiyalanishida shubhasiz oilaning o'rni beqiyosdir. Oilada bola ma'naviyatining shakllanishida onalarning alohida o'rirlari bor. Etuk bilimga ega onagina farzandiga etarli darajada bilim bera oladi. O'tmishimizda

o'tgan buyuk allomalarimizning tarixlariga nazar solsak avvalombor ularning onalari bilimlik bo'lganliklarining guvohi bo'lamiz.

Ma'naviy jihatdan etuk shaxs jamiyat hayotida o'z o'rniiga ega bo'ladi. U oilada ota, ishxonada yaxshi mutaxassis, tengqurlar davrasida esa sadoqatli do'st bo'ladi.

Oilaning mustahkamligi ayni paytda farzandlarning barkamolligi omili hisoblanadi. Ayrim hollarda yosh oilalardagi qo'ydi-chiqd holatlarini ham kuzatish mumkin. Bu o'rinda kimdir aybni qizga, kimdir yishitga qo'yadi. Fikrimcha bu o'rinda ko'proq yigitlarni aybdor deb hisoblash lozim. Chunki, yigit kishi o'z turmush o'rtog'ini ardoqlashi, u bilmagan narsalarni unga o'rgatishi, uning fikri bilan hisoblashishi lozim. Ana shu orqali oilaviy rishtalar yanada mustahkamlanadi. Bu esa ayni chog'da oilada tarbiya topayotgan farzandlarning ma'naviy barkamol bo'lib etishishlari uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Shu bois oilalar mustahkamligini ta'minlash uchun biz tarixchilar o'tmishimizdagи buyuk allomalarimizning oilaviy hayotlaridagi ibratl voqealarni o'rganib, tahlil qilib, uni yosh avlodga etkazishimiz kerak. Bu kabi tadbirlar shubhasiz oilalar mustahkamligi ta'minlash va qo'ydi-chiqdilar sonining kamayishiga xizmat qiladi.

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila - haqiqiy ma'naviyat uchog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga avvalo o'sha muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshirildi.

Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analarini orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon, e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarliq insonparvarliq ilmga ishtiyoq va madaniyat ko'nikma shakllanadi. Zero, har bir fuqaro oilaning jamiyatidagi o'rni vazifasini, Vatanni ostonadan boshlanishini tushunmasdan turib, o'zini mukammal inson deb his qila olmaydi.

Bolalarda yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylik tuyg'usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o'rinn tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab, uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'analarimizga xos shakllarini qO'llash lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yet bo'lgan «jangari» o'yinchoqlar, multfilmlar, kinofil'mlardan

imkon qadar foydalanmasliq Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmiy kitobchalar, milliy ertaklar asosida yaratilgan mul'tfil'mlar bolalardagi ilk yoshlikdan mafkuraviy qarashlarning to'g'ri shakllanishida qo'l keladi.

Inson ma'naviyatining dastlabki kurtaklari oilada shakllanadi. Oila mustahkamligi ahloqiy, huquqiy barqarorligi komil insonni tarbiyalashning birinchi zaminidir.

Oila ijtimoiy tabiiy omillar asosida shakllangan kichik jamoa bo'lib, ikki jinsga mansub bo'lgan shaxslar o'rtaida munosabatlar natijasida nasl qoldirish extiyojidan kelib chiqqan shaklidir. Nasl qoldirish deganda faqat farzandni dunyoga keltirishgina emas, balki uni ma'naviy va jismoniy kamol toptirishdan ham iboratdir.

Oilani boshqarish jamiyat xayotini boshqarishning kurtagi xisoblanadi. Oila a'zolari O'rtaсидаги yaqinliq bog'liliq ishonch, xurmat samimiylig burch va mas'uliyatni xis qilish, talabchanliq muloyimliq bolalar ichki dunyosini shakllantirishga ta'sir etadigan ruxiy omildir⁷.

Jamiyat taraqqiy etgan sari ma'naviy omillarning o'rni va roli ham ortib boradi. Oiladagi tarbiyaga e'tibor ham kuchayadi. Bunday xolatda muhim vazifa oiladagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, ota-onaning farzandlar oldidagi, farzandlarni ota-ona oldidagi burch va mas'uliyatini kuchaytirishdir. Bunday muhitni yaratishda jamiyat, davlat, jamoatchilikning o'rni katta. Agar ularning ta'siri etarli bo'lmasa oilaning farzand tarbiyasidagi o'rni ham zaiflashadi.

Oilaning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi ahamiyati to'g'risida A.Fitrat shunday degan edi: "Har bir oilaning saodati va izzati, albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shunga kuchli va tartibli bo'ladi. Oilaviy munosabatlar zaif bo'lsa intizomsizlikka yo'l qo'yilsa shunda bu millatning saodati va xayoti shubxa ostida qoladi"⁸.

Oilani mustahkamlash ota-onalar va bolalarning huquqini himoya qilishga jahondagi nufuzli tashkilotlar katta ham hissa qo'shmoqdalar.

⁷ Oila ma'naviyati. Ma'ruzalar matni.-Toshkent, 2008.-148 b.

⁸ Fitrat Abdurauf. Oila.-Toshkent: Ma'naviyat, 1998.-B.8.

Sog'lom avodni tarbiyalash va voyaga etkazishda milliy g'oyanin o'rni va roli beqiyosdir. Tarbiya muammolari insoniyat tarixining barcha davrlaridagi g'oyaalar va mafkuralar tizimidan ham katta o'rni olgan. Inson ongi va e'tiqodi uchun bo'lgan kurashlar yoshlar tarbiyaviy yo'llar bilan ta'sir etilgan.

Bobur ma'naviyat xorijliklar nigohida

Shohrux Kenjayev,
**Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi kafedrasi magistranti.**

Boburning “Boburnoma”sini ingliz tiliga tarjima qilgan Erskin Bobur haqida shunday deydi: “Bobur xarakterining eng mislsiz belgisi uning boshqa mulkdorlarnikiga mos kelmasligidadir”. Bobur taxtga o'tirganiga qaramay oddiy turmushning eng yaxshi tuyg'ularini va ishtiyoqini o'zida saqlab qolgan... Uning bevafo taqdirning nayranglariga qaramay, ruhining tetikligi, pordshohlar orasida kamdan- kam uchraydigshan saxiyligi, mardligi, talantiligi, fanga, san'atga muhabbatи va ular bilan muvofaqqiyatli shug'ullanishi jihatidan olib qaralganda, Osiyodagi podshohlar ichidan Boburga teng keladigan biron ta ham podshoh topolmaymiz”.⁹

Harbiy san'at jihatidan Boburni g'arblik sharqshunos olimlar Yuliy TSezar bilan taqqoslaydilar, hatto uni Yuliy TSezardan ham yuqori qo'yib, 19 asrgacha lashkarboshilik san'atining mo'jizasi deb hisoblaydilar.

Boshqa bir olim Eduard Xolden shunday degan edi: “Bobur sof jentelmen va jangchi bo'lgan. U oliyanobldikda qanday xosiyatlar bor bo'lsa, ularning barchasini egallagan, uning manglayiga yuksak fazilat bitib qo'yilgan”.¹⁰

Zero, Bobur Mirzoning o'zi: “Donishmandlar sharaflı bo'lishni ikkinchi hayot deb bilganlar”, - degan edi. Atoqli olim va yozuvchi Zahiriddin Muhammad Boburning ham ikkinchi hayoti besh yuz yigirma yildan ortiqroq vaqtidan beri davom etib kelmoqda.

⁹ W.Erskine “Babur Zaxiriddin Muxammad” 1921y.

¹⁰ Istorya Vostoka, Lektsii Kurs III 1888-89 un.god.

Javoharlaral Neru Bobur haqida o'zining "Hindistonning kashf etilishi" kitobida bahoni keltiradi: "Bobur dilbar shaxs, uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan. U san'atni adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rardi".¹¹

Boburning fikr doirasi, nihoyatda keng, eruditisiyasi juda chuqr, xotirasi esa, "Boburnoma"da ko'zga tashlanishicha, g'oyatda kuchli, haqiqatdan ham kishinihg'ayratda qoldiradigan darajada o'tkir bo'lgan. Uni nafaqat tabiat, balki, uning barcha siru sinoatlari, bemisl guzalliklari va ularning asl mohiyati, ayni choqda, hayvonotlar dunyosi, yana muhim, ularning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ijtimoiy – masifikuraviy hayot, harbiyat, demakki, olam – borliq, undagi jamiki katta – kichik masalalar, ularning manba va man'shalalari qiziqtirgan. Shu tariqa u hamisha yangilikka va kamolotga intilgan.


Boburning ahamiyati to'g'risida mashhur hind yozuvchisi Mulk Roj Onand shunday deydi: "Ulug' Bobur memuar yozganligi ma'lum. U poetik prozada yozgan edi bu kitob biz bilan sizning merosimizdir. Bu O'zbekistondagi kabi bizda ham g'oyat qadrlanadi. Hindistonning ba'zi rassomlari, jumladan, Boburning chevarasi ushbu kitobga rasmlar chizgan. Bu ajoyib qulyozmaning bir nusxasi Moskvada saqlanmoqda. Uni butun dunyodagi ajoyib san'at asari desa bo'ladi. Biz dunyodagi eng go'zal asarlardan birini O'zbekiston va Hindiston o'rtaida baham ko'ramiz".

Rus yozuvchisi Nikolay Tixonov o'zining Boburga bag'ishlab yozgan "Bobur qabrida" asarida afg'on jamoatchiligining Boburga bo'lgan chuqrur hurmatini ifodalab beradi.

Yuqoridaagi kabi haroratli so'zlar Hindistondagi Bobur Mirzo va uning avlodlari faoliyatiga berilgan haqqoniy baho bo'lishi bilan birga, Boburiylarning mamlakat tarixida tutgan o'rni va rolini ham xolisona belgilab beradi.

Bobur Mirzo hayoti va ijodini o'rganar ekanmiz, albatta, uning buyuk shoh va shoirlikdagi tabiiy iste'dod, har tomonlama rivojlangan va qomusiy bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxsiyati, aql – zakovati, ochiq ko'ngiligi, nozik tabiatliligi bizni doimo hayratga solib keladi. Uning asosiy maqsadlaridan biri yagona marokazlashgan davlatni barpo etish, mamlakatni obod etib, ezgutniyatlarini amalgalash oshirish edi. Bobur shaxsiyatini, bizningcha uning ijodiyoti, jumladan

¹¹ Djavaxarlaral Neru.- Otkrytie Indii. Moskva: Inostrannaya literatura, 1984.



“Boburnoma” asosida ko’rib chiqilsa va o’rganilsa yanada maqsadga muvosiq bo’lardi. Hech shubha yo’qki Bobur Mirzo va boshqa tarixiy shaxslarni boy merosidan davrimizning muhim vazifalarini bajarishda foydalanishimiz lozim, buni qilmoqdamiz ham. Bashariyatning mana shu birgina daho farzandi haqida bugunga qadar yuzlab kitoblar yozilgan. Va inshoollo, hali yana yuzlab – minglab asarlar bitilgusidir.

Chunki uning tarixi va taqdiri xalqimiz tarixi va taqdiri bilan chambarchas bog’liq. Xalqimiz tarixini yozmoq uchun esa shoir aytganidek, “Minglab Firdavsiy kerak.”

Nafaqat olis – yaqin kechmishlarimiz balki utayotgan umrimizning har lahzasi – tarix. Tarixning har lahzasi esa tadqiq va tahlilga munosib.

Axloqning vatanparvarlik tamoyili

Marhabo Irgasheva,

**Nam DU Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari
va huquq ta’limi kafedrasi magistranti.**

Inson shaxsini ijodiy imkoniyatlari cheksiz lekin bu tabiiy imtiyoz uning o’zini o’zi yuzaga chiqarish muhitini yaratishga bogliq. Inson shaxsida bo’lgan yaratuvchanlik qobiliyati uning erkinligi me’yori bilan mutanosib ravishda sodir bo’ladi. Ijtimoiy munosabatlar ruhi va darajasi doirasiga monand inson o’zini - o’zi belgilab va o’zgartirib o’z taqdirining sohibiga aylana boradi. Totalitarizm fojealaridan biri shundaki u tufayli inson “men” nini xarakatga keltiruvchi erkinlik va mustaqillikni kishanlovchi tizim yaratildi.

Inson shaxsizligini ilohiyashtirishga qaratilgan nazariy qoidalar individualizmni tanqid qilish zaylda yuzaga chiqdi. Xolbuki individualizm o’z – o’ziga mahliyolik, hudbinlik emas balki o’z-o’zini qadirlash shahsiy kamolot sari intilish. Tashabbuskorlik o’z mexnatini mustaqilligi salohiyatini o’rnatishni taqazo etadi.

Ijtimoiy subektlar oila, elat, millat, sinf, tadbirkorlar, diniy uyushmalar, yoshlar va qariyalar, ayollar firqalarining harbiri o’z mansaati va qadrini tiklash uchun faoliik ko’rsatadi. Umumiy masjurasi ular o’z manfaatini boshqa manfaatlardan ustun qo’yib, ijtimoiy muvozanatga putur yetkazishi tabiiy hol. Shuning uchun ham

totalitar tuzum mafkuraviy hukumronligiga qarshi umuminsoniy qadryatlar imtiyozi ko'tarilganda ijtimoiy ruhiyatda hursandchilik kayfiyati uyonadi. Lekin umuminsoniy qadryatlar inson manfaati inson erkinligisiz mavhum, muallaq qadryat bo'lib qolaveradi. Binobarin hamma qadryatlar tizimi mazmunida insonning aniq manfaati va uning qadr qimmati yotadi. Faqat insonparvarlik mafkurasi bizning ichki va tashqi siyosatimizni shakillantiruvchi va amalga oshiruvchi goyaviy qudrat bo'lishi mumkin. Faqat shu mafkuragina tinchlik, mehnat, ozodlik, birodarlik,adolat, baxt kabi umuminsoniy qadryatlarni o'z ideali qilib olishi mumkin.

Vatanparvarlik – vatan – muqaddas qadryat taraqqiyot vatandan boshlanadi u insonni kindik qoni to'kilgan joy, insonni ijtimoiy yetimlikdan asrovchi manzil, har kimning birligini qadrlovchi o'ziga o'zi siyosiy bekligini ifodalovchi zamin, ma'naviy kamolot va fuqarolik maydoni, hayot maktabi. Farovonlik va baxt saodat o'chog'idir. Shuning uchun ham har bir odam o'z dard alamini, orzu umidlarini Vatan taqdiri bilan bog'lab kelgan uning timsolida o'z xalqining aql idrokini, or nomusini va vijdonini ko'rib kelgan. Vatan'arvarlik tuyg'usi azaliy qadryatdir. Bu tuyg'u tug'ma qadryat siyosatida vujudga kelib, ijtimoiy mahnaviyat bag'rida kamolatga erishadi. Qizil imperiya davrida bizga sening vataning SSSR deb keldilar SSSR siyosiy haritasi choc chokidan so'kilib ketganda esa, biz vatan fojiasini deyarli sezmadik chunki haqiqiy vatanimiz O'zbekistonning ovozi endi jahon sivilizatsiyasi qavmida baralla yangray boshlagan edi. Endilikda bizning vatanparvarligimizga yangi qon, yangi jon kirdi.

Mustaqil o'zbekistonning ulugligiga endilikda shu respublikaga mansub o'z nomini bergen millatga mansub kishilarning uyushqoqligi va yuksak insoniy fazilatlari, ularni kamolotga yetkazishning ijtimoiy muhitiadolatparvar, demokratik huquqiy va ahloqiy tartibi bilan o'lchanmoqda. Endilikda vatanparvarlik tuyg'ulari bilan chayqovchilik qilish vatanni moddiy va ma'naviy qadryatlarini kamsitish, "Shuncha odam bosmachi" "Shuncha odam xalq dushmani" deb ishdan olinganlar, qamalganlar. Tazyiq qilganlar haqida Moskvaga hisobot beruvchi vatanfurushtlar yo'q. Qizil im'eriya davrining keyingi yillarda ko'gina ehtiyojlarimiz muayyan darajada qondirilgan edi, uy joy, kiyim kechak, shahar va qishloqlar obodonchiligi, xilma hil jihozlarning ko''ayishi elektrlashtirish,

gazlashtirish turmush tarzining moddiy va mahnaviy jihatlarini ko'tarish va hokozolar lekin xalqiniz o'z vataniga ega bo'limgani o'z taqdirini o'zi belgilay olmagani uchun o'zini baxtli xis eta olmas edi. Vatan mustaqilligining manbai o'zbekning mustaqilligidir. O'zbekning izzati, o'zbekning qadr qimmati, baxti o'zbekning qalbi Vatanidir. Afsonalar, ertaklar, rivoyatlar, hikoyalari va shu singarilardagi sevikli qahramonlarning badiiy obrazlari sovet kishisini ma'naviy dunyosiga bolalikdan o'mashib oladi va butun umri bo'yи esidan chiqmaydi.

Go'zallik, muhabbat, xursandchilik, zavq-shavq -xulas ijobiyl xis-tuyg'ular va emotsiyalar yoki aksinch'a - jirkanish, g'azablanish, ko'ngil sovish va shu singari xis-tuyg'ular xar bir kishida xayot faktlariga duch kelganida, mehnat jarayonida va sanhat asarlari bilan tanishganida vujudga keladi.

Inson badiiy ijodining ilk davrida estetik go'zallik va foyda tushunchasi yonma-yon bo'lgan insonning sanhatkorlik faoliyati xamisha ishlab chiqarish bilan, xo'jalik faoliyati bog'langan. Masalan, qadim zamonalarda odamlarni yashashi uchun zarur bo'lgan juda ko'' maxsulotlarni to'ib kelgan odam gozal hisoblangan. Xamma narsa ishlab chiqarish amaliy saviya nuqtai nazardan baholanib kelgan. Xalqlar va qabilalarni ertaklarida ijobiyl persanaj albatta, bahodir, usta ovchi, Tolmas mehnatchi bo'lishi juda diqqatga sazovor. Ayollar esa surriyodni ko''aytirish bilan bog'lab tasvirlangan. Jamiyatning dastlabki qadamlarini tasvirlovchi muzey va eksponantlarni ko'zdan kechiramiz.

Yurak mushagining xususiyatlari

N.R.Melanova, O.Z. Abdullayev

Yurakning asosiy vazifasi muntazam qaytarilib turadigan qisqarish tsikllari va bo'shashishlar ko'rinishidagi mexanik ishni bajarish hisoblanadi. Ishchi miokardning targ'il mushaklari qo'zg'aluvchan to'qimalarga mansubdir. Yurakning ritmik qisqarishlari uning o'zida yuzaga keladigan impulslar ta'siri ostida paydo bo'ladi. Agar, ajratib olingan yurakni o'ziga mos keladigan sharoitlarda saqlansa, u, ma'lum bir chastota bilan qisqarishni davom ettiraveradi. Ushbu xususiyatni avtomatizm deyiladi. Ritmik

impulslar yurakning o'tkazuvchi tizimini ixtisoslashgan hujayralari tomonidan elektr potentsiallари ko'rinishida generatsiyaланади(узатилади). Улар miokard tolalariga o'tkaziladi va ularning qisqaruvchanlik faoliyatini ishga tushiradi.

Miokard hujayralarini elektrofiziologik hodisalarini tavsiflashda quyidagi: qo'zg'aluvchanlik, qo'zg'alish, qisqarish, o'tkazish atamalari ishlatiladi. Ular yurak mushagining xususiyatlari sifatida ko'riladi. Qo'zg'aluvchanlik atamasi ostida yurak mushagining qo'zg'atuvchilar ta'sirini qabul qilish va ularga nisbatan qo'zg'alish reaksiyasi bilan javob berish qobiliyati tushuniladi. Yurak mushagi elektr, mexanik, kimyoviy va termik qo'zg'atuvchilar ta'sirida qo'zg'alishga qodir.

Qo'zg'aluvchanlikning o'lchovi qo'zg'alish bo'sag'asi hisoblanadi, agar qo'zg'atuvchilarning ta'sir kuchi bo'sag'adan past bo'lsa, unda qo'zg'alish paydo bo'lmaydi. Amerikalik fiziolog G.P. Boudich 1871 yilda, asab va mushak to'qimalari uchun ta'sir qiluvchi qo'zg'atuvchining kuchi bilan javob reaksiyasingning kattaligi o'rtaida bog'liqlik mavjudligini empirik ravishda aniqlagan. Buni u, "Bor yoki yo'q" qoidasi ko'rinishida ifodalab, unda „yo'q,, deganda bo'sag'aosti kuchining qo'zg'alishlariga reaksiyaning bo'lmasligi tushiniladi. Bo'sag'a, bo'sag'aosti ahamiyatiga ega rag'batlar yoki bo'sag'aosti ta'sirlarning summatsichsi maksimal kuchga ega qo'zg'alishni "bor"ni paydo bo'lishi ko'rinishidagi javob uchun sharoit yaratadilar. Bu hol, miokard tuzilishining alohida xususiyatlari bilan tushuntiriladi.

Qo'zg'alish atamasi, qo'zg'atuvchining ta'siriga javoban tirik hujayrada sodir bo'ladigan jarayonlarni ifodalash paytida ishlatiladi. Qo'zg'alish—hujayraning reaksiyasi bo'lib, u, fizikaviy —kimyoviy va funktsional o'zgarishlar majmuasidan iborat. Qo'zg'alish vaqtida, hujayra nisbatan tinch holatdan, unga xos bo'lgan faoliyat ko'rsatish holatiga o'tadi. Uning faoliyati paytida yurakning miokardida qo'zg'algan va qo'zg'almagan tolalar orasida potentsiallarning farqlanishi paydo bo'ladi. Yurak hujayralarining elektrofiziologik xususiyatlarini tushunishda hujayra ichidagi potentsial ajratishni mikroelektrodli usuldan foydalanish katta ahamiyatga ega bo'ldi. Hujayra membranalari zaryadining kattaligi, ularni turli shakllarga o'tishga bog'liqligini o'rganish Amerikalik fiziologlar Xodjkin A.L va Xaksli A.F.larga 1963 yili, kal'marning asab tolalarida harakat


potentsialini paydo bo'lishini ionli mexanizmini tushuntirib berish imkonini berdi. Oxirgi yillarda, miokard hujayrasining xususiyatlarini elektrofiziologik tadqiqot qilish ko'p sonli nazariy va amaliy izlanishlarda namoyon bo'ldi. Bu ko'proq Xodjkin va Xakslining qo'zg'alishni ionli nazariyasini modifikatsiyasi hisoblanadi. Izotop va kuchlanishni belgilash usullarini qo'llash ham miokardning turli hosilalarining tolalarida tinchlik va harakat potentsiallarining ionli tabiatini real ko'rsatish imkonini berdi.

Normal sharoitda ishchi miokard hujayralari diastolani o'tish davrida membranani stabil potentsialini qo'llab turadi. Ulardan farqli o'laroq, O'tkazuvchi tizim miotsitlari diastola davrida sekin o'sib boruvchi depolyarizatsiyani bildiradi.

Membrananing tinchlik potentsialini (TP) va harakat potentsialini (HP) farqlashni mikroelektrodli texnikasini qo'llash quyidagilarni aniqlash imkonini berdi (1-rasm).

Bu rasmda miokard hujayrasi tinchlik potentsiali va harakat potentsiallarining fazalari tasvirlangan bo'lib, tinchlik potentsiali -80 mV ni tashkil etgan. Harakat potentsialining davomiyligi 400 ms ni tashkil etgan. Harakat potentsialining amplitudasi 120 mV bo'lib, overshut qismi esa +40 mV ga yetgan.

Bu albatta sut emizuvchi (issiqqonli) hayvonlar miokard hujayrasining harakat potentsiali konfiguratsiyasi bo'lib, sovuqqonli hayvonlarda yurak miokard hujayrasining harakat potentsiali ko'rsatkichlari bundan tubdan farq qiladi.



1- rasm. Membrananing tinchlik potentsialini (TP) va harakat potentsialini (HP) fazalardagi holatlarining tasviri (www.critical.ru).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Almatov K.T, Allamuratov Sh.I “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” Toshkent, “Universitet” 2004 y.
2. Azimov I. G’, Hamroqulov A.Q, Sobitov Sh.S. “ Umumiylar sport fiziologiyasidan amaliy mashg’ulotlar” Toshkent “O’qituvchi” 1992.
3. Klemesheva L.S, Almatov K.T, Matchanov A.T “Qon aylanish fiziologiyasi” (Yurak fiziologiyasi) Toshkent, 2006 .

Sharqona axloqiy tarbiyaning tarixiy ildizlari va manbalari

*Marhabo Irgasheva,
Nam DU Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari
va huquq ta’limi kafedrasi magistranti.*

Turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi «Avesto», «O’rxun-Enasoy bitiklari»da, shuningdek, Aflatun, Arastu, Konfutsiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojibdan tortib hozirgi zamon faylasuflarigacha o’ziga xos fikr-mulohazalar bildirgani diqqatga sazovordir.

Kaykovus, Nizomiy Aruziy, Abu-Lays Samarqandiy, Sa’diy Sheroyziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning ilmiy-nazariy asarlarida oila munosabatlardagi tarbiya tarixiylik va vorisiylik nuqtayi nazaridan bayon etilganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamizning yirik faylasuf olimlari ilmiy ishlarida madaniyat taraqqiyotidagi milliylik va umuminsoniylikning tarbiya jarayoniga o’tkazgan ta’siri, oila, ma’naviyati masalalari haqida ko’plab asarlarida to’xtalib o’tgan. Bolalar tarbiyasida mavjud bo’lgan oila muammolari, unda yuritiladigan ta’lim-tarbiya masalalari azal-azaldan ilmu - ijod ahli diqqat e’tiborini jalg’ etib kelgan. Oilaning turmushi va hayoti,

iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy, uning tabiiy assoslarini nima tashkil etadi. Oila tarbiyasi qanday qonuniyatlar asosida vujudga keladi degan savollarda kishilik tarixining barcha davrlarida dolzarb masala bo'lib kelgan. «Avesto»da zardushtiylikning oltin qoidalaridan biri - oilani muqaddas sanalgani bois, boshqa ayrim sabablarga ko'ra, masalan, ig'vo, tuhmat, er-xotinning o'zaro kelishmovchiligi, ota-onal bilan murosa-madora qila olmaslik kabi bahonalar bilan nikohning bekor qilinishiga yo'l qo'yilmagan. Zardushtiylikning axloq-odob qoidalariga ko'ra, ayollar masalasi «Avesto»da alohida o'rinn tutadi. Jumladan, ayollar hayz ko'rgan va homiladorlik paytalarida marosimiy makruh hisoblanganlar va ular boshqa pok narsalar, ayniqsa, suv, olov, oziq-ovqatdan uzoqlashtirilganlar. Jumladan, bunday ayollar o'z oila a'zolari bilan bir dasturxon atrofida o'tqizilmagan, o'zaro munosabat va muloqotlarda cheklangan, ovqat pishirmagan, non yopmagan, hovli supurmagan, sigir sog'magan, marosimlarda qatnashmagan, ro'zg'or yumushlariga aralashdirilmagan. Odatda, bu kabi «cheklash-chegegaralash davri» farzand tug'ilgandan yetti kundan to'qqiz kungacha, ba'zan esa kichik chillasi tugagunga qadar davom etgan.

Shuningdek, oilaning jamiyatda tutgan o'rni, oila tarbiyasi, ota-onal va farzandlar o'rtasidagi munosabatlardan hamda oilaning pokligi va mustahkam bo'lishiga oid qimmatli fikrlar hadislarda muhim o'rinn egallaydi: «Xotin kishi qovurg'adan yaratilgan. Agar sen qovurg'ani to'g'rilayman desang sindirasan, murosa qilu u bilan yasha»; «Xotin kishiga eng haqqi ko'p kishi eridir, erkak kishiga eng haqqi ko'p kishi onasidir»; «Agar bir shaharda loaqal bir ayol bir marta buzuqlik ko'chasiga kirib haromi ortirsa, bu shahardan qirq yil fayzu barakat ko'tarilib ketadi»; «Ayollarni faqat ulug' odamlar hurnat qiladi. Ularni faqat pastkash odam xo'rlaydi».

Jumladan, Kaykovusning «Qobusnama» asari ham turkiy xalqlar madaniyatining buyuk bir durdonasi sifatida qabul qilindi. Tarixiy dalillarning shohidlik berishicha, asar muallifi Kaykovus «Qobusnama» ni o'z o'g'liga atab yozadi va kitobining nomini bobosi, Somoniylar davri hukmdorlaridan biri bo'lgan Shamsul Maoliy Qobus ibn Vushmagir nomi bilan ataydi. Otaning o'z o'g'li tarbiyasi va kelajagi uchun dasturilamal bo'luvchi maxsus pandnomasi asar yozishi hamda uni bobosi nomi bilan atashida ham o'ziga xos sharqona oilaviy tarbiya tamoyili bor. «Ey farzand, umidim shuki, sen bu pandlarni qabul qilgaysan. Bu bilan men otalik vazifasini bajo keltirgan

bo'lurman, - deydi ma'rifatparvar ota Kaykovus, bilgilki, xalqning rasmi, odati shundayki, yugurib-yelib, qidirib-axtarib dunyodan biron narsa hosil qiladilar va bu topgan narsalarini o'zlarining yaxshi ko'rgan kishisiga qoldirib ketadilar. Men dunyoda mana shu so'zlarni hosil qildim, sen mening uchun eng qimmatbahosan. Menga safar vaqtি yaqinlashdi, dunyodan nima hosil qilgan bolsam, sening oldingga qo'ydim, toki o'zingga bino qo'yimagaysan va o'zingga nomunosib ishlarni qilmagaysan»¹².

Kaykovus o'z o'g'lining kelajagi haqida qayg'urib, uning kelgusida har jihatdan barkamol, to'kis inson bolib yetishishini istagan holda o'z o'git va pand nasihatlarini qoldirib ketgan. Kaykovus «Ota-onani hurmatlash haqida» nomli asarining V bobida oilaviy tarbiya xususida alohida to'xtaladi. Yoshlarni ota-onani hurmat qilishga chaqiradi, ularning o'z farzandlari uchun «o'limga ham tayyor» turishlarini ta'kidlaydi. Ota-onal ko'nglini ranjitmaslik, ularni izzat-ikrom qilish, hamisha shirin so'zlar bilan muomalada bo'lish zarurligini uqtiradi: «o'z farzanding seni hurmat qilishni istasang, sen ham ota-onangni hurmat qil, chunki ota-onang haqida niima ish qilsang, farzanding ham senga shunday ish qiladi».

Farzandning aqli, dono, o'qimishli, ya'ni ma'rifatli bo'lishi shu bilan bir qatorda ota-onani hurmat qilishi bilan bog'laydi: «Har bir farzand aqli va dono bo'lsa, ota-onaning mehr-muhabbatini ado qilishdan bosh tortmaydi».

Kaykovus farzand parvarishi haqida so'z yuritar ekan, hech narsani nazaridan qochirmaydi. Yangi tug'ilgan farzandga avvalo yaxshi ot qo'yish, so'ng uni aqli, mehribon doyalarga berish, katta bolib, es-hushi kirgach, hunar va kasb o'rgatish, o'qitib ilmli qilish kabi vazifalar ota-onaning, birinchi navbatda otaning ezgu burchi ekanligini ta'kidlaydi. «Otalik shartin bajo keltirgilki, farzanding vujudga kelgandagidek hayot kechirsin, ya'ni har odam vujudga kelgan kunidan boshlab xulqi, odati unga hamroh boladi, ammo kuchsizlikdan, yumshoqligidan va zaifligidan uni namoyon qila olmaydi. Katta bo'lgan sari, jismi va ruhi quvvat topadi, hamma fe'lilitvori namoyon boladi, kamolga yetgandan so'ng hamma yaxshilik va yomonligini zohir qiladi. Sen esa adab, hunar va bilimni unga

¹² Kaykovus. Qobusnomá. – Toshkent: Meros, 1992.- 86 b.

o'zingdan meros qisib qoldirgin, toki uning haqqini bajo keltirgan bo'lasan».

Forobiyning «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishish haqida ko'rsatmalar», «Baxt-saodatga erishish haqida», «Fuqarolik siyosati», «Davlat arbobining aforizmlari» kabi asarlarida jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida falsafiy ta'limot yaratdi, inson jamoalarining jamiyatda tutgan roli, davlat va oila, ularni boshqarish haqidagi ilmiy bilimlar tizimini yaratdi.

Stafilokokk toksinlarining biologik membranaga ta'siri

N.R .Melanova, O.Z.Abdullayev

Rezul'tatysi issledovaniya pokazali, chto glutationpodavlyayet regulyatsiyu ob'ema timotsitovputem modulyatsiey regulyatornyx sistem (takix kak transportnyx sistemy dlya kal'tsiya, kaliya i xlora), na ne blokiruet yee polnostyu kajetsya. Eto nablyudenie ukazivaet na to, chtovnekletochnyy glutationmojet deystvovat' kak effektivnyy immunomodulyator.

Stafilokokklar butun sistemalarda kasallik chaqiradi va barcha organ to'qimalarni shikastlaydi. Ular pnevmoniya, yiringli plevritga, endokarditga, meningitga, miya abtsissiga, tug'ishdan so'nggi isitmali qaltirashga, flebitga, tsistitga va pielonefritga sabab bo'lishi mumkin. Stafilokokkli pnevmoniya epidemik grippning fatal asoratida yaqqol ko'rindi. Stafilokokklar ayniqsa keng tarqalgan osteomielitga sabab bo'ladi. Stafilokokk bilan kasallanish kasalxonalarda, odatda bemorlarda, jiddiy kasallarda ba'zan paydo bo'lib qoladi. Masalan, stafilokokkli pnevmoniya – superinfektsiya bo'lib, bemorlarga katta dozada antibiotik qo'lllaganda kelib chiqadi.


Stafilokokk juda ko'p zaharli hususiyatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Ajablanarlisi, boshqa hech qanday mikrob ularchalik ko'p miqdorda toksin ishlab chiqara olmaydi. Bular ichidan ekstratsellyulyar toksinlar, gemolizinlar (stafilolizinlar), fermentlar o'rinni olgan. Ularning bari u yoki bu darajada kasallik kelib chiqishiga va mikrob virulentligiga sharoit yaratadi. Lekin bitta shtamm birdaniga shuncha zaharli mahsulotni ishlab chiqara olmaydi.

Gemolizinlar – bular ekzotoksinlar bo’lib, hujayra membranasiga ta’sir etgan holda, eritrotsitlar, leykotsitlar, trombotsit makrofaglarni lizisga uchratadi va ko’pgina to’qimalarni yemirilishiga olib keladi. Ajablanarlisi, gemolizin faoliyatini stafilokokkli infektsiyaning fatal kelib chiqishining ko’pgina holatlari bilan tushuntirish mumkin.

Stafilokokk kul’turasini qonli agarda o’stirganda gemoliz yaltiroq zona(beta-gemoliz)da namoyon bo’ladi. Streptokokkdan farqli ularoq stafilokokk qisman gemoliz (alfa-gemoliz)ni chaqirmaydi. Aniqlanishicha, yunon harflari stafilokokkli gemolizinning immunologik tiplarga ajralishini belgilashda qo’llaniladi va bu yerda harflar xuddi streptokokklarning gemoliz tipi kabi to’liq yoki to’liq bo’lmanan gemolizni bildiradi. Masalan, gemolizin xuddi alfa - gemolizin (alfa - lizin, alfa - toksin) kabi stafilokokklarning qonli agardagi koloniyalari atrofida yaltiroq zona hosil qiladi.

Mikroorganizilarни zararlangan odam yoki hayvon organizmiga kursatadigan potologik ta’siri, ularni organizmga oqsil tabiatli toksinlarni ajratib chiqishi bilan belgilanadi. O’tgan asrning oxirlaridayoq Staphylococcus aureus xujayrasiz filtratini tajriba xayvonlariga inektsiya qilinganda shamollash reaktsiyasini yuzaga keltirish xususiyati aniqlangan. Keyinchalik S aureus ning turli shtamlari xujayralararo muxitga katta miqdorda turli tuman ferment va toksinlarni ajratib chiqarishi aniqlangan ulardan biri bo’lmish α-toksin stafilokokk infektsiyasi patologik jarayonlari rivojida muxim rol o’ynab, to’qimalar shikastlanishini yuzaga keltiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda biz iliy tadqiqot ishlarimizda stafilatoksinlarni suniy qo’shqavatli membranalarga ta’sirini o’rgandik. Qo’shqavatli membrana Myuller usuli buyicha 25°S haroratda tashqi qavati teflon bo’lgan ikki kamerali yacheykalarda oktanning 1 %li eritmasidan hosil qilindi. Stafilokok shtampi peptonli ozuqa muhitida 37°S haroratli termostatda o’stirildi va membrali filtrida filtirlandi. Filtratda bakteriya hujayralari bo’lmaydi, stafilakok ajratgan toksinlar qoladi. Sun’iy membrananing assosiy o’tkazuvchanligi 2-3 rA ni tashkil qilib, bir soat mobaynida stabil xolatda turdi. Eksperimental yacheykalarning biriga 100 mkl filtrat qo’shganimizda membrananing o’tkazuvchanligi oshganligi kuzatildi. O’tkazuvchanlik bir tekisda ko’tarilmay sakrashlar bilan kutarildi bu ion kanali hosil bo’lganligi bildiradi (1 A va B rasm).



1-rasm. Stafilakok toksinining QQLM birlamchi ion kanallarining qayd qilinishi.

100 mv fiksotsiyada ushbu kanalning o’rtacha amplitudasi o’tkazuvchanligi

86 ± 10 rA ni tashkil etdi. Kanalning volt-amper xarakteristikasi tug’ri chiziqli xolatga ega. Olingan natijalarga asosalangan xolda stafilakok toksinlari kanalafor xususiyatga ega. Bu esa abadiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarni yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Krasilnikov O.V. Sabirov R.Z. Ternovskiy I.V. Belki, ionniye kanali i reguliyatsiya transporta ionov cherez membrany. Toshkent Fan-1991-s102-159.
2. Ezepchuk Yu.V. Klassifikatsiya toksinov. Biomolekulyarnie osnovy patogennosti bakteriy.-M.Nauka.-1997.s.91-96.
3. Toshmuxamedov B.O., Qosimov M.M. Elektrofiziologiya asoslari. Toshkent: Universitet,1997.

“Boburnoma”dagi toponimik ma’lumotlar

*Tohirjon Qozoqov,
Nam DU dotsenti, tarix fanlari nomzodi*

Buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini turli fan sohalariga oid ma’lumotlarni beruvchi o’ziga xos qomusiy asar desak, xato qilmagan bo’lamiz. Mazkur asar o’lkamiz tarixi, etnografiyasi, geografiyasi, toponimikasini o’rganish uchun asos bo’la oladigan muhim manbalar sirasiga kiradi.

Ayniqsa, Farg’ona vodiysining geografiyasi va toponimikasi masalasi boshqa asarlarda uchramaydigan o’ziga xos uslubda tasvirlangan. Asarni o’qish jarayonida ko’z o’ngimizda bundan 500-600 yil muqaddam ro’y bergen tarixiy voqealar bilan birga yurtimizdagi makon va manzillarning o’ziga xos nomlanishi, joylashish o’rni ham namoyon bo’ladi.

Ba’zi o’rinlarda Bobur davridagi aholi manzilgohlari, qishloq va qal’alarning nomlari asl holida bugungi kunga qadar yetib kelganligining guvohi bo’lamiz. Ayrim holatlarda esa, muallif ko’rsatib o’tgan manzil va makonlar bugun boshqacha tarzda nomlanayotganligini, fonetik o’zgarishlarga uchraganligini, yoki butunlay boshqacha nomlanayotganligini shohidi bo’lamiz.

Joy nomlari haqida aniq tasavvurga ega bo’lish xalq o’tmishini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yetarli toponimik bilimga ega bo’lmasdan bildirilgan fikrlar, yaratilgan asarlar esa, keyinchalik tarix fani sohasida chalkashliklarning kelib chiqishiga sabab bo’lishi mumkin.

Akademik D. S. Lixachyov o’z vaqtida ta’kidlagan edi: “Toponimiyaning tarixiy-madaniy merosiyligini qayta tiklar ekanmiz, biz bu bilan xalqimizning madaniy qadriyatlarini qaytaramiz, bugundan o’tmishga va o’tmishdan bugun orqali kelajakka aloqa rishtalarini o’tkazamiz. Tarixiy nomlarni qaytarish va himoya qilish – oliyjanob ijtimoiy va madaniy vazifa”,¹³.

Toponimikada shunday bir tushuncha ham borki, joy nomlari xususida fikr bildirganda, avvalo so’zlarning etimologiyasiga e’tibor qaratish lozim. Aholi o’zi yashab turgan joyga nom qo’yishda birinchi galda o’z ona tilida ishlataladigan so’zlardan

¹³ <http://www.taraqqiy.uz/2016/02>

soydalandi. Aholi manzillari, daryo va ko'llar o'rnini aniqlashda gidronimlar va oykonimlarning ahamiyati kattadir. Toponimika tarixni haqqoniy tadqiq etishdagi muhim fan tarmog'i hisoblanadi. Ba'zi toponiimlar ayniqsa, suv havzalarini, geografik hududlarni nomlanishi shu hudud etnografiyasi to'g'risida haqqoniy xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

Shu o'rinda buyuk bobomiz o'z asarlarida keltirib o'tgan ayrim toponimik va geografik ma'lumotlarga to'xtalib o'tamiz.

Masalan, Boburning Toshkentdan Aksi va Andijon sari, Kosondan Axsiga kelish chizmasi, Axsidan Xo'jandga tomon yurgan yo'llari chizmasi, u yerlardagi manzillarning nomlanishi masalasi ham g'oyat ahamiyatlidir.

Boburnomada tilga olingan Namangan hududidagi Namangan, Koson, G'ova, Karnon, Navkent, Pop aholi manzillari bugun ham shu nom bilan ataladi. Biroq, Kandirlik dovon, Arxiyon qo'rg'oni, Bandi solor yo'li bugun qanday nom bilan ataladi? Ular asli qaerda joylashgan edi, degan savollarga javob berish toponimika fani oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Axloqiy va ma'naviy kamolot

*Nilufar Imomberdiyeva,
Namangan shahar 27-umumita'lim maktabi
boshlanchi sinf o'qituvchisi*

Bashariyat tarixiga nazar tashlasak, inson va uning hayoti, ma'naviyati, axloqi, barkamollik darajasi odamlar o'rtasidagi turli xildagi ijtimoiy munosabatlar majmuasidan iborat ekan. Ijtimoiy hayot va jamiyatning barqarorligi, go'zalligi, sermazmunliligi, insonning ijodiy mehnat faoliyati, odobi, xatti-harakati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. Shu jihatdan qarasak, insonni yuksak martabaga eltadigan vosita faqat mehnat va ijtimoiy faoliykgina bo'lib qolmasdan, balki uning odobi, axloqi, barkamolligi, kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqoti bilan bog'liq ijtimoiy muhit hamdir.

Hozirgi bizning yangilanish jarayonini o'tayotgan jamiyatimizda ham hayotning hamma sohalarida hukm surayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy barqarorlikni ta'minlash muammosi hamda

uning yechimini topish zarurati yuqorida qayd etilgan muammolar asosida vujudga kelgan.

Yuksak madaniyatli, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash muammosi insoniyat ma'naviy-axloqiy merosining eng ko'hna mavzularidan. U shaxs kamoloti va barkamol insonning ijtimoiy, siyosiy madaniy, ruhiy hamda axloqiy sohalari bilan bog'liq bo'lган muammolar yechimini topish uchun harakat qilib kelgan.

Yangilanish davrini boshidan kechirayotgan mustaqil respublikamiz fuqarolari ongi va qalbida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik g'oyasini singdirish eng muhim vazifalardan biri. Zero, umuminsoniy qadriyatlar barkamol inson tarbiyasi uchun barcha zamonlarda ham ahamiyati cheksiz bo'lган. U jamiyat ma'naviy extiyojini qondirish uchun zaruriyat bo'lib kelgan. Hayotiy zaruriyat bo'lib kelgan qadriyat azal-azaldan xalq og'zaki ijodida, ertaklarida, pandnomalarida, dostonlarida asosiy mavzulardan biri hisoblangan. Shuning uchun bo'lsa kerak, uni nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga kiritib, barkamol inson axloqiy tarbiyasi uchun muhim bo'lган vosita deb bilganlar.

Qadriyatlar inson ma'naviy kamolotining muhim omili, inson ma'naviy faoliyatining mahsuli, uning moddiy dunyoga bo'lган munosabatining ifodasi bo'lish bilan bir qatorda katta tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. U kishilar tomonidan yaratilib, o'zlashtirilib, fuqarolar ongi, qalbi va e'tiqodiga singib, faoliyatiga asos bo'lгandagina katta ijtimoiy kuchga aylanadigan hodisa. U jamiyat ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotining zaruriy maxsuli. Shunga ko'ra, qadriyat hamma zamonlarda ham dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Bu mavzu, ayniqsa, jamiyat bir bosqichdan ikkinchisiga o'tayotgan, ijtimoiy-siyosiy tartiblarga kishilar "ko'nikib" qolgan zamonlar o'zgarib borayotgan davrda dolzarb muammoga aylanadi. Bunday davrlarda fuqarolarning qadriyatlarga munosabati, ular bilan bog'liq maqsad va ideallari o'zgaradi. Eski qadriyatlar fuqarolar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirmay qo'yadi. Bunda yangi qadriyatlarga ehtiyoj tug'iladi va uni shakllantirish zaruriyatga aylanadi. Qadriyat - qadr-qimmat degan tushunchani anglatadi.

Milliy g'oya targ'ibotining ayrim jihatlari

Saida Ismoilova,

Namangan shahar 27-umumta'lim maktabi

Boshlang'ich ta'lif ilmiy bo'lim mudiri

Jonajon O'zbekistonimizda tobora qad ko'tarib borayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni masalalari bilan bevosita bog'liq. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashuvi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yosh avlodni, barkamol shaxsni tarbiyalamasdan tasavvur etib bo'lmaydi. Bu ulug'vor vazifani amalga oshirish, avvalo, yuksak malaka va ma'naviyatga, mustahkam milliy g'oyaga va tafakkurga ega bo'lgan, vatan mustaqilligi va ravnaqi, tinchligi va farovonligi yo'lida fidoiy kishilarni, yoshlarni tarbiyalash va voyaga yetkazishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Milliy g'oya va istiqlol maskurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi xali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman, deydi yurtboshimiz. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi.

Bu o'rinda nazariya va amaliyotning, ta'lif va tarbiyaning yaxlit birinchi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Shu jihatdan ham o'quvchi yoshlari orasida milliy g'oya targ'iboti omillarini yoritish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xalqimizni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlari sari birlashtirish, har bir fuqaroning yagona Vatan baxtsaodati va ravnaqi uchun doimo ma'suliyat sezib yashashiga, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni buniyodkorlik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas tuproq uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish-milliy istiqlol g'oyasining asosiy maqsadidir. Milliy g'oyaning mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashdagi ahamiyatini izohlashda qo'yidagi masalalarga jiddiy e'tibor berish zarur. O'zbekiston xalqaro terrorizm, fundamentalizm va diniy ekstremizmning fojeaviy hurujlarini bir necha bor o'z boshidan o'tkazdi. Amalga oshirilgan har bir terrorchilik harakatining aniq maqsadga yo'naltirilganligi, oldindan puxta tayyorgarlik ko'rildi.

harakatlarning qatnashchilari yaxshi o'qitilgan, qurollantirilgan va o'z razil niyatlariga yetish uchun har qanday qurbanlardan, shu jumladan, tinch aholini qirg'in qilishdan qaytmaydilar. Bunday qabih maqsadlarning zamirida esa buyuk davlatchilik gegemonizmi, diniy mansublilik, etnik birlik (etnotsentrizm), ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy monopolizm singari tarixiy asoslarga ko'ra dunyoni bo'lib olishga urinish yotganligi ham tobora oshkor bo'lib bormoqda.

O'zbekistonning jug'rofiy-siyosiy nuqtai nzardan qulay joylashgani, mintaqa va jahon siyosatiga ta'siri kuchli ekanligi, xalqimizning yuksak salohiyatliligi va yurtimizning tabiiy resurslarga boyligi ham ko'pchilik yirik davlatlarning tinchini buzmoqda, razilona harakatlarga undamoqda. Adabiyot va san'at – o'z vositalari orqali odamlarning ongiga ta'sir o'tkazadi, xalqning boy madaniytarxiy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlaridan, jahon sivilizatsiyasi xazinasidan bahramand etadi. Har tomonlama kamol topgan, ma'naviy boy shaxsni tarbiyalash adabiyot va san'atning asosiy yo'nalishi aylanishi zarur.

Alisher Navoiy ijodidagi asosiy g'oyalar

*Rahimjon Karimov, Nam DU dotsenti, f.f.n.
Dilafruz Qodiraliyeva, Nam DU Ingliz tili yo'nalishi talabasi*

Amir Temur va Temuriylar davri Vatanimiz xalqlarining hayotiy taqdirida, ularning ijtimoiy taraqqiyotning yuksak marralariga ko'tarilib borishlari davomida o'chmas iz qoldirgan alohida bir tarixiy bosqich bo'ldi. Eng muhimi, bu davr Amir Temurdek buyuk siyoni tarix maydoniga chiqardiki, bu zoti sharif va uning avlodlarining mislsiz sa'y-harakatlari, bunyodkorlik faoliyatları tufayli Movarounnahr va Xuroson o'lkalari ulkan o'zgarishlarga yuz tutdi. Mug'ullarning bir yarim asrlik bosqini va zu'lmas-isoratidan butunlay xalos bo'lgan ona yurtimiz qudratli salatanatga aylanibgina qolmay, ayni chog'da ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy ma'naviy jihatlardan yuksalib, jahonga dovrug' taratdi. Ulug' ajododlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksak namunalari, duru-javohirlari mana necha asrlardirki, jahon ahlini hayratga solib. minnatdor avlodlar ardog'ida e'zozlanib kelmoqda.

Temuriy hukmdorlar va shahzodalar adabiyot va san'atga, ilm-fanga yaqin kishilar edi. Ulardan 22 tasi ijodkor-shoir bo'lib, ular o'zlari she'r yozish bilan birga ijodkorlarga homiylik ham qilgan. Xalil Sulton, Husayn Boyqaro devon ham tuzganlar.

Xuroson va Movarounnahrda forsiy va turkiyda ijod qiluvchi shoirlar ko'p bo'lib, adabiy hayot yuksalgan. Sharq mumtoz adabiyoti tarjimalariga ham e'tibor kuchayadi. Badiiy ijodning g'azal, ruboiy, tuyuq kabi turlari rivoj topdi. Adabiy jarayonda shohlar ham, oddiy kosib va hunarmandlar ham, olim va fozillar ham qatnashgan.

XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotining eng rivojlangan davri bo'lib, bu yuksaklik temuriy Sulton Husayn Boyqaro va o'zbek adabiyotining porloq quyoshi Alisher Navoiy nomlari bilan bog'liqdir. Husayn Boyqaro Xuroson xukmdori bo'lgan davr (1469-1506)da adabiyot, san'at va fanning ko'p sohałari rivojiga katta ahamiyat berildi. «Husayniy» taxallusi bilan she'rlar yozgan Sulton Husayn o'z hukmronligi davomida Alisher Navoiyga "Amiri kabir", «Muqarrabi hazrati sultoniy», ("Sulton hazratlarining eng yaqin kishisi") mansablarini berib, u bilan birgalikda madaniyatning rivojlanishiga homiylik qildi. Alisher Navoiy ustozি Abdurahmon Jomiy bilan hamkorlikda ma'naviyat taraqqiyotiga rahnamolik qildi. Ular timsolida badiiy adabiyot ulkan yutuqlarga erishdi. Alisher Navoiyning «Hamsa»si va «Xazoyin ul-maoniy» devoni, Jomiyning «Haft avrang» va she'riy to'plamlari shu davr adabiyotining eng buyuk namunalari bo'ldi. Sulton Husayn Boyqaro o'z «Risola»sida uning hukmronligi davrida shunday asarlar yaratilganidan cheksiz faxrlangani bejiz emas.

Alisher Navoiy ijodining asl mazmun va mohiyatida asosan komil insonni tarbiyalash g'oyasi yotadi.

Navoiy:

El qochsa birovdin, el yomoni bil oni,

Ahvolidan idbor nishoni bil oni

Fe'l ichra ulus baloyi jon bil oni

Olam elining yomon-yomoni bil oni, deb bejiz yozmagan.

Umumlashtirib aytganda, komil inson tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Komil inson shunday insondirki, u avvalo dinu-diyonatini mustahkam tutgan, muayyan g'oya va maslakni e'tiqod darajasiga ko'targan, o'zidagi qusurlarni ilm-ma'rifat ne'matlari asosida bartaraf

eta olgan, nafs va xoyu-havasni irodasiga tayanib boshqara olgan kishidir¹⁴.

Bizda qadimdan «Ma'rifatli inson tushunchasi ancha keng ma'noni anglatgan. Unutmasligimiz kerakki, ma'rifat xalqimiz, millatimiz qonidadir. An'anaviy sharqona qarashga ko'ra ma'rifatlilik – bilim, ma'naviyat va go'zal ahloq degani hamdir. Xalqimiz bilimli, komil inson deganda aynan shunday odamlarni ko'z oldiga keltiradi. Milliy meodelimizda komil inson g'oyasiga, uni tarbiyalash masalalasiga alohida e'tibor berilganligi ham ayni ana shu haqiqat bilan bog'liqidir.

Ertangi kunimiz, hayotimizning farovonligi, zamondan orqada qolmaslik, taraqqiy topgan davatlardan va xalqlardan kam bo'lmaslik, bir so'z bilan aytganda, ertangi istiqbolimiz, barcha ezgu niyatlarimizning amalga oshirilishida, birinchi navbatda, bizning o'rnimizga kelayotgan yosh avlodimizni har tomonlama etuk insonlar qilib tarbiyalashga, voyaga etkazishga bog'liqidir.

Konstitutsiya — davlatning asosiy qonuni sifatida

K. Boquboyev,

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasiriing demokratik va huquqiy davlat qurishdan maqsadi mamlakatda yashovchi har bir kishining huquq va erkinliklarini to'la kafolatlashdir. Buning uchun, avvalo, O'zbekistonda huquqiy asos yaratildi, ya'ni Respublika Konstitutsiyasi va qabul qilgan qonunlarda umum e'tirof qilingan xalqaro hujjalalar qoidalariiga mos keluvchi inson huquq va erkinliklari, ularning kafolatlari belgilab qo'yildi.

Davlatimizning asosiy Qonuni - Konstitutsiyamiz vaqt sinovidan muvaffaqiyatli o'tdi va kundalik hayotimizning rivojlanishi, uning istiqbolini belgilashda xizmat qilmoqda. O'tgan davr mobaynida Konstitutsiya mamlakatimiz buyuk kelajagining asosiy huquqiy kafolati ekanligini to'la isbotladi. Konstitutsiya jamiyatning rivojlanishida va davlat qurilishida yangi bosqichga o'tishga dalolat

¹⁴ Milliy taraqqiyotning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari.-Toshkent, 2008.-B.387.

beruvchi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga asos soldi. Konstitutsiya qabul qilingandan buyon o'tgan davr ichida mamlakatimizda, xalqimiz hayotida asrlar mobaynida yuz berishi mumkin bo'lган o'zgarishlarga erishildi. Yurtimiz sho'rolar davridan meros bo'lib qolgan chuqur iqtisodiy tanazzuldan qutuldi, olkazilayotgan keng ko'lamlı siyosiy, iqtisodiy islohotlar tufayli bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot qaror topdi, demokratiya tamoyillariga asoslangan milliy davlatchiligidan va huquq tizimimiz shakllandı, ijtimoiy-madaniy soha barqaror rivojlanib bormoqda, kishilarimizning ma'naviy qiyofasi yangilanmoqda, ularning ongiga istiqlol g'oyasi tobora chuqurroq singib bormoqda, mustaqil yosh davlatimiz xalqaro jamiyatda o'z o'rmini topdi. Uning xalqaro miqyosda nufuzi oshib bormoqda, jahon siyosatini belgilashda roli kuchaymoqda¹⁵.

Konstitutsiya lotincha «constitution» so'zidan olingan bo'lib, «o'rnataman» degan ma'noni anglatadi. Bu atamaning lotinchadan olinganining sababi qadimgi Rim imperiyasi davrida davlat boshlig'i - imperatorlar tomonidan xuddi shu nom bilan ataladigan va qonunga teng bo'lган normativ hujjatlar qabul qilingan.

Hozirgi «Konstitutsiya» tushunchasi XVIII asr oxirida paydo bo'lган va dunyoda birinchi Konstitutsiya sifatida 1787-yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasi bilan bog'liq. Konstitutsiyaga hozirga qadar juda ko'plab olimlar tomonidan ta'rif berilgan.

Konstitutsiya - bu prinsipial ahamiyatga ega bo'lган huquqiy normalarni o'zida mujassam etgan va davlat hokimiyatini amalga oshirish me'yorini belgilovchi davlatning asosiy qonuni bo'lib, unda davlatning qurilishi, huquqiy tizimi hamda eng asosiysi, davlat bilan aholi o'rtasidagi munosabatlar aks etgan yuridik hujjatdir.

Konstitutsiyaga ta'rif berishda ko'pchilik konstitutsiyashunos olimlar uning mohiyatidan kelib chiqadi. Konstitutsiya mohiyatiga turlicha yondashuvlar mavjud.

Birinchidan, Konstitutsiyalar shunday jamiyatda qabul qilinadiki, bu jamiyatlar ijtimoiy tuzumida inqilobiy o'zgarishlar ro'y berib, davlat hokimiyatiga egalik qiladigan bir ijtimoiy guruh

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlatni shakllantirishning asosi» mavzusidagi ilmiy anjuman materiallari, TDYUI. — T.: 2011

vakillari o'mini boshqa ijtimoiy guruh egallab olganda Konstitutsiya siyosiy muvozanatni, kuchlar nisbatini saqlab turadi (masalan, qirol hokimiyati cheklanib, parlamentning mavqeい oshganda).

Ikkinchidan, ko'pincha Konstitutsiyalarda, ular qabul qilingan paytdagi davlat hokimiyatiga ta'siri katta bo'lgan siyosiy kuchlarning manfaatlari ko'proq aks etgan bo'ladi (masalan, Fransiyaning 1946-yilgi Konstitutsiyasida fashizm ustidan qozonilgan g'alaba, siyosiy maydonda millatchilik kayfiyatiga qarshi kuchlar, harakatlarning ta'siri oshgani o'z ifodasini topgan).

Uchinchidan, Konstitutsiyalar real hayotda davlat hokimiyatiga xalq egalik qiladigan jamiyatlardagina qabul qilinadi. Bunday jamiyatlar ko'pincha demokratik jamiyat sifatida e'tirof etiladi.

To'rtinchidan, Konstitutsiya davlatning o'z hokimiyatini amalga oshirishda ma'lum bir chegarani belgilaydigan, davlat va uning fuqarolari o'rtasidagi munosabatdan kelib chiqadigan shartlashilgan hujjatdir. Davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishning kafili bo'lsa, o'z navbatida fuqarolar davlat oldidagi burchlarini bajarishlari shart.

Zamonaviy Konstitutsiyalarning mohiyati umuminsoniy, huquqiy qadriyatlarni va umumdemokratik asoslarni mustahkamlashda ifodalanadi. Ular har bir inson teng huquqli fuqaro bo'lib faoliyat yurita oladigan davlatda yashashini targ'ib qiladi. O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan Konstitutsiya o'z mohiyatiga ko'ra, demokratik huquqiy davlat qurish Konstitutsiyasi sifatida O'zbekiston xalqi irodasining ifodasidir va bu iroda umumdemokratik prinsiplarni o'zida mujassam etuvchi, insonni, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb e'tirof etuvchi davlat va jamiyat hayoti asoslarini mustahkamlashga yo'naltirilgandir¹⁶.

Dunyo konstitutsionalizmi o'zining rivojlanishi mobaynida tarixdagi ko'plab ijtimoiy-siyosiy voqeliklar ta'siri ostida bo'lib keldi. Shuning uchun turli davrlarda ko'plab mamlakatlar tomonidan qabul qilingan Konstitutsiyalar, ularda mustahkamlangan normalar va tartibga solingen ijtimoiy munosabatlar ko'lamiga qarab, Konstitutsiyalar qabul qilingan davr talablaridan kelib chiqib, ularni mazmunan har xil rivojlanish bosqichlariga bo'lish mumkin.

¹⁶ Tadjixanov U., Odilqoriyorov H., Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. — T.: «Sharq», 2001, IIV Akademiyasi, 85-86-betlar

Bunda Konstitutsiyalar yillar sayin mazmunan boyib, mukammallahib borgan. Hozirda aksariyat adabiyotlarda Konstitutsiyalarning rivojlanish bosqichlari to'rtga bo'lib o'rganiladi.

Huquqiy munosabatlar-inson ongli faoliyatining mahsuli

K. Boquboyev,

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi*

Huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etishi masalasi davlat va huquqning umumnazariy muammolari uchun g'oyat muhim metodologik ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlab o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Chunki ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari orqali tartibga solinadigan qismi huquqiy munosabatlarni tashkil etadi, boshqacha aytganda, uning yordamida huquq hayotga tatbiq qilinadi. Demak, mohiyatan olib qaraganda, huquqiy munosabatlar – bu huquqqa asoslangan barcha ijtimoiy o'zaro munosabatlardir. Bunday munosabatlar jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini qamrab oladi. Shunga ko'ra, aytish joizki, ekologik huquq tomonidan insonning tabiatga bo'lgan moddiy munosabatlari tartibga solinadi; itisodiy munosabatlar yuridik mulk huquqida mustahkamlanadi; siyosiy munosabatlar esa konstitutsiya tomonidan aniqlanadi. Ayni paytda milliy va diniy, oilaviy va davlatlararo munosabatlar ham huquq tomonidan tartibga solinadi. Umuman, huquq ham butun ijtimoiy hayot singari insonlarning bir-biriga, atrof muhitga bo'lgan munosabatlari orqali shakllanadi.

Shuni ham alohida qayd etish joizki, huquq normalashtirilgan qonunlar orqali iqtisodiy va texnologik munosabatlar – mulkiy, ishlab chiqarish, ayrboshlash, iste'mol va taqsimlashga doir faoliyat bilan chambarchas bog'liqidir. Albatta, bunda huquq iqtisodiy negizga faqat taqozo etilgan hollardagina bog'liq bo'lislarni ham nazardan soqit qilmaslik lozim.

Huquqiy munosabatlarning muhim xususiyati – bu ularning *davlat siyosati* bilan bog'liqligidir. Bu o'rinda gap huquqiy munosabatlar kishilarning qonunlar bilan mustahkamlangan real manfaatlari ekanligi to'g'risida borishi tabiiy. Jumladan, mustaqillik yillari

mobaynida mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatni hamda bozor iqtisodiyoti talablariga mos demokratik qonunchilik tizimi yaratilganligi ham shundan dalolat beradi. Kishilar turli ijtimoiy birlashmalar (oila, millat)ga, siyosiy va jamoat tashkilotlariga uyushganlar. Ushbu birlashmalar va tashkilotlar orqali ular o'zlarining tub manfaatlari ega bo'ladi. Binobarin, bu manfaatlar huquqiy normalarning shakllanishi va singib ketishiga, pirovardida barcha ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadigan muayyan g'oyalarda, qarashlarda, rasmiy hujjatlarda, dasturlarda, diniy ta'limotlarda o'z ifodasini topadi. Ayniqsa, hozirgi jamiyatda ijtimoiy va huquqiy munosabatlarning shakllanishi kishilar va ular birlashmalarining¹⁷ hokimiyat bilan bog'liq munosabatlarida siyosat muhim o'r'in tutadi. Zero, davlat siyosiy institut sifatida huquqiy mexanizmlar orqali o'z siyosatini amalga oshiradi. Shu sababli huquqiy munosabatlar har doim siyosiy munosabatlardir, ular siyosat bilan bog'liq bo'lmasan holda mavjud bo'lmaydi. Ayni paytda huquqiy munosabatlar axloq bilan axloqiy munosabatlar bilan ham uzviy bog'liqdir.

Shunga ko'ra aytish mumkinki, davlat va huquqning umumnazariy muammolari orasida huquqiy munosabatlar eng muhim masalalardan sanaladi. Darxaqiqat, bu bejiz emas. Modomiki, huquqiy munosabatlar – huquq bilan bog'liq, huquq asosidagi munosabatlar ekan, demak, ular tabiiy huquqlar va majburiyatlar bilan birga paydo bo'ladi, davlatning paydo bo'lishi bilan esa ularning eng muhimlari qonuniy shaklga ega bo'ladi. Shu ma'noda huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini yanada aniqroq va yaxshiroq anglab olish g'oyat muhim hisoblanadi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, huquqiy munosabatlar nafaqat ijtimoiy guruhlar faoliyatida, balki alohida shaxslar xulq-atvorida ham shakllanadi. Bu jihatdan ular huquqiy normalar bilan aniq belgilangan xulq-atvorda doimiy ravishda takrorlanadigan xatti-harakatlar sifatida amalga oshiriladi. Bunda huquqiy normalarning mazmuni hamda shaxsning maqsadlari, orzu-umidlari, intilishlari mazmuni muhim hisoblanadi. Bu omillarning o'zaro ta'siri huquqiy xatti-harakat va huquqiy xulq-atvorni vujudga keltiradi, uning xususiyati esa jamiyatda huquqiy munosabatlar rivojlanishining mazmuni va yo'nalishini bashorat qilish imkonini beradi.

¹⁷ «Xalq so'zi», 2004 yil 19 mart.

Milliy g'oya va milliy maskuraning tarixiy zarurat ekanligi
Jumavoy Umarov,
*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi*

Tariximiz ildizlari necha-necha ming yillarga borib taqaladi. O'zbekiston xalqining boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bor. Hozirgi O'zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo'lib, qariyb 3000 yil davomida takomillashib borgani va dunyo davlatchiligi rivojida eng yuksak darajaga ko'tarilgani jahonga malum. Xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi, mustaqillik yillarda milliy, huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik, fuqarolik jamiyat qurish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish jabhalaridagi faoliyatini o'rganish g'oyat muhumdir.

Barcha dalili ashylar miloddan avvalgi so`nggi ming yillik boshlarida, aniqrog'i VIII-VII asrlarda ajdodlarimizning Vatanimiz hududlarida Xorazm va Baqtriya nomi bilan mashhur bo'lgan dastlabki davlatlarni barpo etganidan, bu davlatlar o`ziga xos rivojlanish jarayonini bosib o'tganligidan guvohlik beradi.

Xorazm davlati egallagan hududlar hozirgi Xorazm erlari bilan chegaralanib qolmay, balki undan ancha janubga, yani Marv (Turkmaniston), Hirot (Afg'oniston shimoli) atroflariga qadar ham yoyilgan.

Miloddan avvalgi so`nggi ming yillikning boshlariga tegishli «Amirobod madaniyati», quyi Amudaryo havzasida yuzaga kelgan o`ziga xos suniy sug'orish inshooti tizimi hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qalalar-Qalaliqir, Ko'zaliqir va boshqalar bular Xorazm vohasida davlat tuzilmalari mavjudligidan dalolat beradi. Xorazm va Baqtriya davlatlarida kechgan siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy madaniy jarayonlar ajdodlarimizning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot yo'lidan ilgarilab borib, o'z davlatchilik tuzilmalarini vujudga keltirib, boshqaruv usullarini takomillashtirib borganligidan guvohlik beradi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, shaharsozlik, mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish qurollarining takomillashib borishi ulug` bobokalonlarimiz o'lmas dahosi, salohiyatining yorqin ifodasidir. Bular qadimgi o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribasining muhim jihatlari, namunalari sifatida alohida qimmatga egadir. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan

boshlab huquqiy davlatchilik asoslarini yaratish muhim vazifalardan biriga aylandi. Milliy davlatchilik rivojlanishining ming yillardagi ananalari mustamlakachilik yillarida batamom inkor etilgan edi. O'zbekiston rahbariyati tarixiy ananalarga, dunyo tajribalariga, ulkaning milliy -tarixiy rivojlanishiga, uning o'ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni tubdan isloh qilish yo'llarini ishlab chiqdi.

Istiqlol yillarida to'plangan tajriba va ijtimoiy hayot rivoji aslida inson, jamiyat g'oya va masifikurasiz yashay olmasligini ko'rsatdi. Zotan, odamzot o'zining ruhi va shuuridagi ko'pdan-ko'p savollarga javob bo'ladigan, uni doimiy faoliyatiga undab turadigan hayotbaxsh g'oyaga hamisha ehtiyoj sezib yashaydi. Chunki tabiatda, jamiyatda bo'shliq bo'limgani kabi inson qalbi va ongida ham bo'shliq bo'lmaydi. Jamiyat hayotida sog'lom g'oya ustivor bo'lib turmasa, odamlarning qalbi va ongini yot, zararli g'oyalalar egallab, halqning turush tarzini izdan chiqaradi. Xuddi dunyoning boyligi turli kuchlar o'rtaida talash bo'lganidek, insonlarning qalbi va ongini egallab, ularni o'z qo'llidagi quroqla aylantirish maqsadi ham jahonda har xil tajovuzkor oqim va ta'limotlarni o'zaro kurashga undashi, ayniqsa, bugungi kunda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Inson tafakkurini maxsuli sifatida g'oya tevarak olamni o'rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari ilm-fan, din, falsafa, san'at va adabiyot, axloq, siyosat va xuquq-muayyan bir g'oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin: Ilmiy g'oyalalar, Falsafiy g'oyalalar, Diniy g'oyalalar, Badiiy g'oyalalar, Ijtimoiy-siyosiy g'oyalalar, Milliy g'oyalalar, Umuminsoniy g'oyalalar.

Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat taraqqiyotga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda.

Har qanday nazariya yoki ta'limot bir tizimga solingan g'oyalalar majmuidan ibrat bo'ladi. Dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch e'tiqodining asosini ham g'oya tashkil etadi.

Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning millat va davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g'oyalarda ifoda etiladi. O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani bunga qanday

yo'llar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy masifikasining asosini tashkil etadi.

Kompensatsiya to'lovlar tushunchasi va turlari

Jumavoy Umarov,

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi har bir xodimning keng huquq va erkinliklarga ega ekanligini mustahkamlab qo'ygan hamda ularni ta'minlashning iqtisodiy va huquqiy vositalarini nazarda tutadi. Mazkur huquq va erkinliklarni amalga oshirishni ta'minlovchi iqtisodiy va yuridik vositalar huquqiy kafolatlar deb nomlanadi.

Inson va uning huquqi, erkinligi hozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridan biridir. Inson huquqlari masalasi demokratik huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri bo'lib, u davlatning qay darajada rivojlanganligini ko'rsatuvchi mezon sisatida namoyon bo'ladi. O'zbekistonning demokratik huquqiy davlat qurish yo'lliga o'tishi ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga yangicha yondashish, eski andozalardan voz kechish hamda jahon tajribasini hisobga olishni ob'ektiv asosda talab qilmoqda.¹

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tgandan keyin amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy va pirovard maqsadi bu eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir. Fuqarolarimiz asosiy tirikchilik manbai va turmush farovouligini oshirishning yetakchi vositasi bo'lib bugungi kunda mehnat shartnomasi asosida (yollanib) ishlovchi fuqarolar - xodimlarga to'lanadigan ish haqi hisoblanadi. Daromad olishning tarkibiy qismi hisoblangan mehnatning miqdori va sifatiga munosib ish haqi olish kishilarning eng muhim iqtisodiy huquqi hisoblanadi.

Korxona, tashkilot, muassasalarda yollanib ishlovchi xodimlarga nisbatan turli xil to'lov shakllari amalga oshiriladi. Jumladan, biz

¹ Inson huquqlari. O'quv qo'llanma. T., O'zbekiston, 1997 y. – B. 124

etirof etmoqchi bo'lgan to'lovlardan biri bu kafolatli va kompensatsion to'lovlardir.

Kafolatli va kompensatsiya to'lovleri – aniq huquqlarni rasmiy amalga oshirishga yo'naltirilgan kafolatlarning bir turi bo'lib hisoblanadi.

Kompensatsiya to'lovleri - xodimga o'z mehnat vazifalarini bajarishi munosabati bilan qo'shimcha qilinadigan xarajatlarni qoplashga yo'naltirilgan to'lovlar hisoblanadi¹⁸.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 171-moddasiga muvofiq, xodimga xizmat safari davrida va ko'chib yurish bilan bog'liq ishlarni bajarish vaqtida qilingan xarajatlar uchun kompensatsiya to'lanadi. Ma'lumki, xizmat safariga yuborish tartibi, safar muddatlari, xodimning safar davridagi xarajatlarini qoplash tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklari tomonidan 1993 yil 19 aprelda tasdiqlangan (28-sod, 497-i-1-01-sod) "MDH mamlakatlari doirasidagi xizmat safarlari to'g'risidagi yo'riqnomaga" bilan tartibga solinadi. Mazkur yo'riqnomaga binoan ish beruvchining topshirig'iga muvofiq xodimning xizmat topshirig'ini bajarish uchun muayyan muddatga doimiy ish joyidan boshqa joyga borishi xizmat safari deb ataladi.

Yuqorida qayd qilinganidek, kompensatsiya to'lovleri – bu pul summalaridir va ular ish beruvchining manfaatlari yo'lida o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan amalga oshirilgan pul yoki boshqa moddiy shakldagi xarajatlarni xodimga qoplab berilishidan iborat.

Mehnat qonunchiligi mehnat munosabatlari jarayonida xodim tomonidan qilingan xarajatlarni to'liq qoplash tamoyiliga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq kompensatsiya to'lovlarining quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:

- 1) xizmat safari bilan bog'liq kompensatsiya to'lovleri;
- 2) boshqa hudud va boshqa joyga ishga o'tganda to'lanadigan kompensatsiya to'lovleri;
- 3) amortizatsiyaviy to'lovlar¹⁹.

¹⁸ Tursunov Y. Trudovoe pravo Respublikii Uzbekistan. T.: TDYUl, 2005 y. –B. 168

Bundan tashqari mehnat sharoitlari bilan bog'liq holda to'lanadigan kompensatsiyaviy ustama va qo'shimcha to'lovlar ham uchraydi.

Korxonaning boshqa yerda joylashgan filiali, uchastkasi va boshqa tarkibiy bo'linmasiga yuborilishi xizmat safari deb hisoblanadi. Chunki mehnat shartnomasida shartlashilgan korxonaning ish bajariladigan tarkibiy bo'linmasi xodimning doimiy ish joyi bo'lib hisoblanadi.

Doimiy ishi yo'lida o'tadigan, shuningdek sayyor, ko'chma tusda bo'lган xodimlarning (masalan, yo'lovchilar tashiydigan poezdlar, fuqarolik havo transporti xodimlari va kabilalar) xizmat taqozosi bilan yurishi xizmat safari deb hisoblanmaydi. Xodimlarni xizmat komandirovkasiga yuborish ish beruvchining buyrug'i (farmoyishi) bilan rasmiylashtiriladi hamda xodimga maxsus ravishda tasdiqlangan shakldagi xizmat safari guvohnomasi beriladi. Qoidaga ko'ra xizmat komandirovkasining muddati ish beruvchi tomonidan belgilanadi, lekin uning umumiyl muddati 40 kundan oshib ketishi mumkin emas, bu muddatga yo'lida bo'lган vaqt kirmaydi.

Montaj qilish, sozlash va qurilish ishlarini bajarish uchun yuborilgan xodimlar, rahbarlar va mutaxassislarning xizmat safari muddati 1 yilga qadar belgilanishi mumkin, ayrim hollarda esa bu muddat 2 yilga qadar uzaytirilishi mumkin.

Xizmat safarida bo'lган vaqtida xodimga o'sha korxonadagi ish vaqt va dam olish vaqtি rejimlari joriy qilinadi. Xizmat safari davrida xodimning ish joyi (lavozimi), o'rtacha ish haqi saqlanadi.

Yoshlar tarbiyasi masalalari

*SayidaMinamatova,
Uychi tumani 18-umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri yoshlar va ularning ma'naviy tarbiyasidir. Ma'lumki yurtimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etadi. demografik jihatdan olib qaraydigan

¹⁹ Tursunov Y. Trudovoe pravo Respublikи Uzbekistan. T.: TDYuI, 2005 y. –B. 171.

bo'lsak O'zbekiston Respublikasi yoshlar mamlakati deyishga ilmiy asoslar bor.

Bizning bugungidek dorilomon kunlarda istiqlol bergen barcha imkoniyatlar zamirida komilikka yetishayotgan yoshlarimizning ijtimoiy xayoti qaysi orzu intilishlar tomon yo'nalganligi va uni maqsadli amalga oshirishda turli vositalar jumladan, madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyatini xam o'rni beqiyosdir.

Inson xazin ko'yning sexriga maxliyo bo'lib, qalbidagi barcha razilliklarni o'chirib, dilni allanechuk xis chulg'ab oladi. Qadimda tabiblar musiqa bilan ham bemorlarning dardini davolaganlar. Madaniy ma'rifiy muassasalar o'z faoliyatini amalga oshirishda musiqani asosiy omillardan biri deb xisoblaganlarida bu faoliyatning ta'sir kuchini oshirib, insoniyatni tarbiya vositasiga aylanishini ko'zlaganlari ham ayni haqiqatdir.

Xozirgi kunda madaniy ma'rifiy muassasalar respublikamiz Madaniyat va sport ishlari vazirligi tarmog'ida bo'lib, viloyatlar, tuman qolaversa chekka chekka qishloq hayotiga kirib borish, ularning ijtimoiy turmush darajasini yaxshilash, madaniylashuvni amalga oshirish, shuningdek, insonparlik, qalban poklik, mehru-muruvat, hayri-sahovat, dinlararo bag'rikenglilik, millatlararo totuvlik, eng asosiysi yosh avlodni miliy ma'naviyatimiz, urf- odatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash, jamiyat kishilarini ko'z o'ngida tinch va osuda xayotga intilish va uning qadriga yetish, jaxolatga qarshi ma'naviyat bilan kurashmoq, yosh avlod ong shuurida yot g'oyalar paydo bo'lishi, maskuraviy bo'shliq vujudga kelishini oldini olishga qaratilgan amaliy faoliyatni amalga oshiradi.

Xalq ijodi – tarixiy taraqqiyot davomida xalqning idealariga badiiy munosabat va intilishdan iborat bo'lib kelgan. SHuningdek, madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyatini rivojlantirish, yoshlar ma'naviyati borasidagi amaliy harakatlarni amalga oshirishgda kasaba uyushimalari xamkorligiga tayanish, jamoalardagi yosh kadrlar kasbiy maxorati bilan bir qatorda ma'naviy saloxiyatini oshirishga qaratilgan yangicha ish uslubini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Ayni kunlarda Respublikamizning barcha hududlarida faoliyat yuritayotgan madaniy ma'rifiy muassasalarining yoshlar tarbiyasiga ta'siri katta albatta. Madaniy ma'rifiy muassasalarda o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarning asosiy ishtirokchilari yoshlar ekani, eng

asosiysi esa tashkilotchilar tarkibida yoshlarning mavjudligi bu tadbirning maqsadi yoshlar masalalarini ham qamrab olishini beihtiyor ta'minlaydi. Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, yoshlar hayoti, muammolari va yutuqlari haqida yoshlar o'ziga haqiqiy ta'surotni beradi, eng ta'sirli ifoda vositasini bo'ladi.

Mustaqilligimiz sharofati bilan yillar davomida pok nomlariga "xalq dushmani" deya nomaqbul tamg'a bosilgan yurt fidoiylari nomlari oqlanib, elimiz, qalbidan chuqur joy egallamoqda. Ularning boy ilmiy va ma'naviy merosini yosh avlod ongiga yetkazishda teatr, kino, muzey va kutubxonalarining xizmatlari beqiyosdir. Bu harakatlar natijasi o'laroq yosh avlod ongida tarixiy tasavvur boyimoqda, o'zbek milliy ma'naviyatining davrlar osha shakllanishi, taraqqiyoti va tanazzullarini ochiq-oydin, aniq misollar bilan obrazlar vositasida namoyish etilib, ulardan ibrat olish milliy mentalitetimizga xos sifatlarni yana bir karra yoshlar ruhiyatiga singdirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda vatan taraqqiyoti, yurt farovonligi kelajak avlod-yoshlar qo'lida ekan, bu taraqqiyotning mustahsamligi yo'lida madaniy ma'rifiy muassasalar xodimlari ham o'z ma'suliyatlarini his qilmoqlari, buyuk kelajakning poydevorini milliy madaniyatimiz sarchashmalari bilan bezamoqlari kerak bo'ladi.

Musobaqalarga tayyorgarlik va musobaqalar davrida sportchilarning ruhiyatiga stressning ta'siri

**Z. Sarbarova,
Nam DU Jismoniy madaniyat
fakulteti Sport faoliyati
yo'nalishi 2-kurs talabasi.**

Ilmiy rahbar: b.f.d., dotsent G'. Abdullayev

Kalit so'zlar: Gans Sele, emotsional stress, buyrak usti bezi, katekolaminlar, antigipoksant, katatsin, benzonal

Muammoning dolzarbligi: Bugungi kunda musobaqalarga tayyorgarlik va musobaqalar davrida sportchilar organizmdagi kechadigan fiziologik-biokimyoviy jarayonlarga emotsional stressning turli darajadagi ta'sir mexanizmlarini aniqlash va sportchilarning faoliyatiga stressning ta'sirini kamaytirish dunyo olimlarining oldida o'z yechimini kutib turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jahon sportining barcha turlarida sportchilarning turli vaziyatlarda emotsional beqarorligi tufayli yaxshi natijalarni ko'rsata olmasligi, emotsional stressning shikastlovchi ta'sirlari natijasida musobaqalardan so'ng turli darajadagi ruxiy zARBALARNI olishlari aynan bu masalani yanada chuqurroq o'rganish zaruriyati yuzaga keltiradi va mavzuni dolzarbliyi belgilaydi.

Stress - organizmda kechadigan o'ziga xos ko'p qirrali fiziologik jarayondir. Stress atamasini fanga birinchi bo'lib kanadalik vrach-patofiziolog Gans Sele olib kirgan. G.Sele ta'limoti bo'yicha stressning quyidagi bosqichlari farqlanadi.

1. Xavotirlanish 2. Rezistentlik 3. Holdan toyish

Sportchilarda kuzatiladigan stress holatini katekolaminlar miqdoriga qarab baholash mumkin. Bu borada tadqiqot ishlarini olib borgan olimlarni fikricha musobaqalarni saviyasi qanchalik baland bo'lsa, sportchilarning organizmiga stressning ta'siri shunchalik yuqori bo'ladi. Aynan shuning uchun Olimpiada o'yinlarining rekordlari jahon rekordlaridan o'rtacha 3% ga past ekanligi kuzatilgan. Vaholanki Olimpiada o'yinlari ishtirokchilarining deyarli yarmi dunyo rekordsmenlari hisoblanadi.

Tadqiqotning o'rGANILGANLIK darajasi: Sportchilarning faoliyatiga emotsional stressning ta'sirini bir qator olimlarning; O.A. Chernikova, A.TS. Puni A.V. Rodionov, A.D. Ganyushkin, V.L. Mareshuk, B. A. Vyatkin, V. Goshek, B. Karolchak-Biernatska, Ch. D. Spilberger, A. V. Malchikov, V. L. Mariushuk, V. E. Milmanlarning ilmiy ishlarida uchratish mumkin. Jumladan dastlab Elmodyan, A.A. Viru, S.A. Razumovlar bu borada olib borgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatdiki, musobaqalarga tayyorgarlik davrida va asosan musobaqalar davrida sportchilarning ichki sekretsiya bezlarining faoliyatini kuchayishi, xususan buyrak usti bezining adrenalin va noradrenal sekretsiyasi ortadi. Shuningdek taniqli kanadalik sport psixologi S. Brent Rashell sportchilar va murabbiylar uchun ma'lum sharoitlarda olib borilgan mashg'ulotlar davrida shaxsiy stress-rektsiyalarini tezkor tashxis shkalasini taklif qildi. Bu shkala yordamida sportchilarning turli ruxiy va jismoniy zo'riqishlarga moslashuvchanlik dinamikasini aniqlash mumkin.

Donetsk shaxridagi sport meditsinasи markazi olimlari N.I. Sokolova, Ye.A.Melnikovalar bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari quyidagi natijalarni berdi.

Jami: 16-21 yoshli 43 ta sportchi

Ulardan: sport masteri -14 ta (32,6 %)

kandidat sport masteri -18 ta (41,8 %)

1-razryadli sortchilar - 11 ta (25,6 %)

Ularda kuzatilgan xolatlar;

Reaktiv bezovtalik:

5 ta sport masteri (35,7 %), 9 ta KMS (50 %), 11 ta 1 razryadli sportchilar (100%)

Diqqat e'tiborning pasayishi:

4 ta sport masteri (28,6 %), 2 ta KMS (11,1 %), 8 ta 1 razryadli sportchilar (72,7%)

Tahlikaga tushish:

sport masterlarida kuzatilmaydi , 2 ta KMS (11,1 %), 5 ta 1 razryadli sportchilar (45,4%)

Bosh aylanishi:

1 ta sport masteri (7,1 %), 2 ta KMS (11,1 %), 3 ta 1 razryadli sportchilar (27,2%)

Charchash hissi:

1 ta sport masteri (7,1 %), 4 ta KMS (22,2 %), 7 ta 1 razryadli sportchilar (63,6%)

O'tkazilgan tadqiqot natijalari yuqori kvalifikatsiyali sportsmenlarda stressga chidamlilik darajasi sezilarli yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqotning maqsadi: Yuqorida bayon etilganlar asosida emotsional stressning sportchilarni natijalariga molekulyar, fiziologik ta'sir mexanizmini mavjud ilmiy adabiyotlar va ilmiy natijalar asosida o'rghanish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki sportchilarni organizmi jismoniy mashqlarga vaqt o'tishi bilan moslashib borsa, musobaqalarga tayyorgarlik va musobaqalar davridagi emotsional nagruzkalarga yosh sportchilarda ham, tajribali sportchilarda ham to'la moslanish kuzatilmaydi. Inson organizmida kechadigan barcha fiziologik jarayonlar kabi emotsional stressning ham o'z molekulyar mexanizmlari mavjud bo'lib, organlar sistemasidagi emotsional stress ta'siridagi bu o'zgarishlarni o'rghanish sportchilarni stressor faktorlarga chidamliligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Tadqiqotning usullari. Tajribalarni o'tkazishda fiziologik, bioximik, biosifizik va molekulyar biologik usullardan (differentsial tsentrifuga, polyarografiya, yupqa qatlamlı xromatografiya, spektrofotometriya, fotokalorimetriya) foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining taxlili:

Barcha fiziologik tajribalar kabi emotsiyal stressning organizm to'qima va organlariga, xujayra organellariga molekulyar ta'sir mexanizmlari o'rGANISH tana og'irligi 180-200 g bo'lgan zotsiz oq erkak kalamushlarda o'tkazilganda quyidagi ilmiy yangiliklar olindi;

Gaz-kislorod almashinuvi.

Surunkali emotsiyal-og'riq stressi dinamikasida hayvonlarda gaz-kislorod almashinuvi tajribaning davomiyligiga qarab o'zgaradi. Stressning xavotirlanish bosqichida tajriba hayvonlari organizmi tomonidan kislorod iste'molining oshishiga olib keladi. Bunda kislorodning maksimal iste'mol qilinish darajasi tajribaning 2-hafatasida kuzatiladi. Bunday yuqori darajadagi metabolizmni ta'minlash uchun katta miqdordagi kislorod talab qilinadi. Tajribaning 1 oyidan keyin gaz-kislorod almashinuvi deyarli me'yorlashadi. G.Selening fikricha, organizm rezistentlik bosqichiga o'tadi. Bizning fikrimizcha, tajribaning bu muddatlarida holdan toyish bosqichi boshlanadi. Tajribaning 2 oyidan keyin gaz-kislorod almashinuvi nazoratga nisbatan 29,2% ga pasaysa, 3 oydan keyin 37,5% ga kamayadi. Gaz-kislorod almashinuvi 50% ga yetganda hujayra gomeostazi butunlay buzilib, organizm nobud bo'ladi.

Surunkali emotsiyal-og'riqli stressda hayvonlarda gaz-kislorod almashinuviga katatsin va benzononalning ta'sirini o'rGANISH mazkur preparatlar stressning organizmga salbiy ta'sirini qisman cheklab qo'yishini ko'rsatdi.

Buyrak usti bezlari katekolaminlari.

Stress holatining 1, 2 va 3 haftalarida buyrak usti bezlarida adrena-linning miqdori me'yor darajasidan mutanosib ravishda 40,4; 44,5; va 40,8% larga, noradrenalinning miqdori esa atigi 8,9; 14,0 va 12,9 % larga oshadi.


Rezistentlik bosqichida (stress boshlanganidan bir oy o'tib) yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, buyrak usti bezlarida adrenalin miqdori me'yor darajasidan 32,3% ga, noradrenalin miqdori esa 11,9% ga oshib ketdi. Holdan toyish bosqichida (2 va 3 oydag'i stress) adrenalin miqdori 12,3 va 17,8% ga, noradrenalin miqdori esa 15,8 va

21,6% larga kamaydi. Ikki haftalik stressdan keyin adrenalin miqdori 44,4% ga oshsa, benzonol va katatsin kiritilganda atigi 11,4 va 14,0% larga oshdi. Agar tajribaning bu muddatlarida noradrenalin miqdori 14,0% ga oshgan bo'sha, benzonol va katatsin ishtirokida uning miqdori deyarli me'yor darajasiga yetdi.

Stressning 2 oyida buyrak usti bezlarining to'qimasida adrenalin miqdori gipometaboliksiz birozgina kamaysa, benzonol va katatsin bilan deyarli me'yor ko'rsatkichlariga tenglashdi.

Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, emotsiyonal stressning organizmdagi gaz-kislorod almashinuvi va buyrak usti bezlari katekolaminlari miqdorlarini keskin o'zgarishlariga antigipoksantlarning samarali ta'sirini ko'rshimiz mumkin.

1-grafik. Stressning rivojlanish dinamikasida gaz-kislorod almashinuviga antigipoksantlar ta'siri ($M \pm m$; n = 8 – 10).




a – me'yor, b - nazorat, c – katatsin, d – benzonol.

Ordinatada – kislorod iste'moli tezligi, soatiga ml O₂/kg og'irligiga. Abtsissada – eksperiment muddati: I – 1 hafta, II – 2 hafta,

III – 3 - hafta, IV – 1 oy, V – 2 oy, VI - 3 oy.

Bu yerda va boshqa rasm va jadvallarda ishonchlilik farqi:
 $* R < 0,05$; $** R < 0,02$; $*** R < 0,01$; $**** R < 0,001$.



2-grafik. Stressning rivojlanish dinamikasida kalamushlarning buyrak usti bezlaridagi katexolaminlar miqdoriga antigipoksantlarni ta'siri. ($M \pm m$; $n = 8-10$).

A – adrenalin, B – noradrenalin. Ordinatada – katexolaminlar miqdori, mkg/mg xom to'qimaga. Abtsissada – eksperiment muddati: I – 1 hafta, II – 2 hafta, III – 3 - hafta, IV – 1 oy, V – 2 oy, VI - 3 oy.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaev G.R., Almatov K.T., Irgasheva G.M., Klemesheva L.S. Izmenenie nekotorovykh fiziologicheskix pokazateley organizma v dinamike emotSIONALnogo stressa //Fizikaviy-kimyoiy biologiya va biotexnologiyaning istiqbollari. Xalqaro ilmiy amaliy anjumani. – Andijon, 2007. – S. 268-269.
2. Abdullaev G.R., Almatov K.T. Izmenenie soderjaniya katexolaminov nadpochechnikov krvis v dinamike razvitiya xronicheskogo stressa //Materiali respublikanskoy nauchnoy konferentsii posvyashchennoy 75-letiyu akademika B.A. Toshmuxammedova. Aktualnye problemi sovremennoy fiziologii i biofiziki – Tashkent, 2010. – S. 5-6
3. Abdullaev G.R., Almatov K.T. Vliyanie katatsina na gazokislorodnyy obmen krvis v dinamike razvitiya xronicheskogo emotSIONALno-bolevogo stressa //Infektsiya, immunitet i farmakologiya, 2014. – № 4 – S. 17-24. (№7. 03.00.00).
4. Bodrov V.A. Psixologicheskiy stress: razvitiye i preodolenie. – M: PER SE, 2006.
5. Grinberg Dj. Upravlenie stressom. 7-e izd. — SPb.: Piter, 2002. (Seriya «Mastera psixologii»).

6. Sandomirskiy M.E. Zashita ot stressa. M.- Izd-vo instituta psixoterapii, 2001.
7. Brayt D., Djons F. Stress. Teorii, issledovaniya, mifы. SPb.: Praym-EVROZNAK, 2003.
8. Zankovskiy A. N. Professionalniy stress i funktsionalnie sostoyaniya //Psixologicheskie problemy professionalnoy deyatelnosti. – M., Nauka, 1991.

Sharq mutafakkirlarining ma’naviy va jismoniy barkamollikkagi g’oyalarining mushtarakligi

**Z. Sarbarova,
Nam DU Jismoniy madaniyat
fakulteti Sport faoliyati yo’nalishi 2-kurs talabasi**

Bizning jamiyatimizda sportning o’rni va mohiyati tobora oshib bormoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so’ng Respublikamiz sporti dunyo sportida o’zining munosib o’rni uchun kurashmoqda. Hech bir narsa mamlakatni sport kabi dunyoga mashhur qila olmaydi.

Sport - o’zbek xalqiga qadimi an’ana.

O’zbekistonimizda yuzlab xalq milliy sport o’yinlari bilan bir qatorda zamonaviy sport turlari ham rivoj topdi.

Biz yozgi va kishki olimpiada o’yinlari, jahon va Osiyo birinchiliklari, championatlarida eng yuksak g’alabalarga erishgan yurtdoshlarimiz bilan xaqli ravishda faxrlanamiz.

Sport - tinchlik elchisidir. Bizning maqsadimiz - tinchlik, osoyishtalik va shu asosda jahon ahli bilan hamkorlik qilish. “Sog’lom tanda, sog’ aql” deydilar. Bizning yana bir maqsadimiz har tomonlama kamol topgan, yetuk sog’lom avlodni tarbiyalashdir. Shu tufayli mustaqil davlatimizning birinchi ordeni ham “Sog’lom avlod uchun” deb ataladi. Sog’lom avlodni esa sportsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Sport - sport uchun emas, eng avvalo odamlar uchun, ularni xam jismoniy xam ma’naviy jixatdan komil insonlar etib tarbiyalash uchun, yer yuzidagi barcha kishilarning - tinchlik - osoyishtaligi, do’stlik va xamkorligi, baxt-saodati uchun xizmat kilishi darkor.

Milliy istiqlol yillarda O’zbekistonni bugun dunyoning barcha yurtlarida, eng avvalo, uning davlat ramzlari bo’lmish bayrog’i va

gerbi, madhiyasi orqali tanib oladiganlar millionlar safiga yana millionlar qo'shilmoqda.

Turonzamin xalqlari qadim-qadimdan jismoniy tarbiya va sportni ma'nnaviy va jismoniy barkamollik mezoni sifatida qadrlaganlar. Bu masalaga Ota Makonimizdagi Ikkinchı Renessans (Uyg'onish) zamonida (XIV – XV asrlar) XX asr intihosidan boshlagan Uchinchi Renessans davridagidek alohida e'tibor qozongan. Amir Temur yuritgan oqilona siyosat jamiyat barcha sohalarida bo'lgani kabi jismoniy madaniyatning mohiyatini ham yuqori bosqichga ko'targan. Temuriylar davrida ham jismoniy tarbiyaga davlat ahamiyatiga molik tarbiya sifatida qaralgan. Kurash, kamondan otish, ot sporti o'yinlari bo'yicha, bemalol aytishimiz mumkin, xalqaro musobaqalar o'tkazilgan.

Jisminiy madaniyat, bevosita kishilar o'rtasidagi aloqani, shu bilan birga baynalminal aloqani rivojlantirishda katta o'rinni egallaydi. Jisminiy madaniyat faoliyati bilan muomalada bo'lismi, shaxslar, jamoalar va xalqlar o'rtasidagi aloqalar, million-milion xalqlarni birlashtirib, eng ko'p tarqalgan shakllardan biri bo'lib qoldi. Bu aloqalarning mazmuni, jismoniy madaniyatni o'ziga qaratilmasdan, balki bu jismoniy madaniyat harakatini g'oyaviy mazmuni bilan belgilanib, bиринчи navbatda asosiy sotsial, tamoillarga asoslanib tuziladi. Jismoniy madaniyat harakatini o'sib boruvchi oqimida, xalqaro shakllarini ham hisobga olganida xalqlar o'rtasida, do'stlik va tinchlik orqali g'oyaviy birlashish va aloqa qilish turidir. Bu esa, jismoniy madaniyat faoliyatini hayotda tasdiqlash, harakteriga yordamlashib, unga erishilgan natijalarni umuminson boyligi deb qaraydi. "Sport tilini" universalligi, hamma kishilarni tarjimasiz tushunishi, haqqoniy kurasha olishi, odamlarni birlashtirishga olib keladi.

Jahon hamjamaiyatida tobora mustahkam o'rinni egallay boshlagan respublikamizda boshqa sohalar qatori olimpiada harakati, jismoniy madaniyat va sportga ham alohida e'tibor berilmoqda. Qadim-qadimdan mamlakatimiz jahonga mashhur polvonlari, barchani lol qoldirgan chavandozlari, sheryurak yigit-qizlari bilan dong taratib kelgan. Ular haqida ulug' bobomiz Alisher Navoiydan tortib, barcha adibu shoirlarimiz, olimu faylasuflarimiz ajoyib va o'lmas asarlar yaratganlar, she'ru dostonlar bitganlar, qo'shiqlar kuylaganlar. - Alisher Navoiyning jahon adabiyoti xazinasidan o'rinni olgan beqiyos

kuch-qudratga ega Farhod timsolining o'zini eslash kifoya. Yana xalq og'zaki ijodi durdonalarining qaxramonlari Go'ro'g'li, Algomish, Avazxon. Sheralilarni eslashning o'ziyoq Turonzamin qadimdan sherbilak va sheryuraklar mamlakati bo'lib kelganligini bildirib turadi.

Har tomonlama rivojlangan jismonan barkamol, jismoniy kuch va jismoniy sifatlarning namoyon bo'lishi shaxsiy ehtiyoji hisoblanadi.

Jamoatchilik ehtiyoji har tomonlama yetuk, jismonan sog'lom avlodini tarbiyalab, voyaga yetkazishdek ulug' vazifaga qaratilgandir.

Hozirgi kunda bu ehtiyojlar mahkama va idoralarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot rejalarida ko'zda tutilmoqda. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, jismoniy tarbiya vositalariga bo'lgan ehtiyoj asosiy hisoblanib, uning negizida jismoniy kamolotning taraqqiy etishi yotadi.

Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvchi yoki munosabatlariga muxtoj bo'ladi. Uning fikricha tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhumdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni o'zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim.

Bunga Forobiy ta'lim – tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim – tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib qoidalariga rioya etadi.

Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergen olim sanaladi. Ta'lim – degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Abu nasr Forobiy yana aytadi: «Ta'lim – degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtaida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtaсидаги туг'ма fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir.

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish - harakat, kasb - hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir».

Demak, Forobiy ta'lif – tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Abu Ali Ibn Sinoning fikrlariga ko'ra, yosh avlodni jismoniy mashqlar natijasida xosil qiladigan xarakat malakalari va o'z zamonasida axloqiy irodaviy sifatlarining qimmati shundaki, ularni juda ko'p sohalarga ko'chirish xususiyatiga ega.

Ibn Sinoning ta'lif tarbiya to'g'risidagi g'oyalarida jismoniy tarbiya masalasi g'oyat muxim o'r'in tutadi. Xalq og'zaki ijodida va buyuk mutafakkir, shoirlar asarlarida jismoniy mashg'ulot bilan shug'ullangan kishilar kuchli qo'rmas, botir, sog'lom bo'lislari xar qanday dushmanni yenga bilishlari to'g'risida juda ko'p ma'lumotlar bor.

Amir Temur jangchilarining tayyorgarligi xaqida "Temur tuzuklari" kitobida shunday deydi: "...har bir spoh favjinch urish aslaxalaridan biri deb bilsin va o'q-yoy oybolta, qilich, gurza, pichoq va xanjar kabi har bir favji o'z o'rni kelganda ishlatilsin. Lashkarboshi o'zini va to'qqiz spohiy favjini bir tandem bo'lib, ularni qo'l-oyog'i, boshi ko'kragi va boshqa a'zolarini ishlatib kurashuvchi bir pahlavondek hisoblansin.

Bu shundan dalolat beradiki, Amir Temur o'z jangchilarini har tomonlama jismoniy chiniqtirish uchun otda, piyoda holda jang qilish san'atini o'rgatgan.

Temur va Temuriylar xukmronlik qilgan davrlarda Samarqand, Xirot, Movorounnahr, Xuroson yirik madaniyat markazlariga aylanadi. Xalq orasida turli marosimlar, to'ylar ko'p o'tkazilib, unda kurash, ot o'yinlari, darboz, qilichbozlik, kamonda o'q otish, xo'roz, qo'chqor urishtirish kabi ommoviy sayllar va tomoshalar o'tkazilgan. Soxibquron Amir Temur o'z davrida jismoniy tarbiyaga katta e'tibor bergen, navkar tanlab olishda uch qoidaga qattiq amal qilgan. Birinchidan yigitning kuch-quvvatiga, ikkinchidan-otda chopish, kamon otish, suvda suzish, qilichni o'ynata olishga. Uchinchidan-aql-zakovatiyu, kamolotiga e'tibor qilgan. Uning pedagogik dunyoqarashida bolaga juda yoshlikdan jismoniy tarbiya berish yetakchi o'r'in egallagan.

Abdulla Avloniy o'z zamonasida yosh avlodning kamolotga erishishida badan tarbiyasiga katta e'tibor bilan qaragan. Uning fikricha, "badan tarbiysi badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i

insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir. Sog' badanga ega bo'limgan insonlar amallarida, ishlarida, ibodatlarida kamchiliklidurlar. Maishatimizni rohatda bo'limg'i jasadimizni sog'lom bo'limg'iga bog'liqdir. Biz sihatimizni saqlamoq ilo amr qilganmiz, shuning uchun vujudimizni xifzu-sihatga zid bo'lgan yomon odatlар ilo churutmakdan saqlamog'imiz lozimdir. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga xam yordami bordur. Jism ilo ruh ikkisi bir choponning o'ng ilo teskarisi kabidur.

Agar jism tozalik ilo ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo'yib, astarini yuvib ovora bo'lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradi".

Jamiyatning ijtimoiy-iktisodiy rivojlanish va uning ijtimoiy tuzilishiga bog'liq. Shuning uchun bizning mamlakatda olimpida harakati, jismoniy madaniyat tizimi xar tomonlama barkamol insonlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lib, vatanimiz shuhratini ko'tarish, kadimiy urf-odatlар kadriyatlarga sodiq bo'lib, otabobolarimiz Amir Temur, Pahlavon Mahmud, Jaloliddin Manguberdi kabilardan ibrat olgan holda sog'lom avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Temperamentga qarab kasb tanash

Z. Sarbarova,

**Nam DU Jismoniy madaniyat
fakulteti Sport faoliyati yo'nalishi 2-kurs talabasi**

Jamiyatimizning kelajagi bo'lgan yoshlar chuqur bilimga ega bo'lgan, fikrlash qobiliyati yetarlicha o'sgan, hayotiy muommolarni mustaqil hal qila oladigan kishilar bo'lishi kerak. Keljak avlod haqida qayg'urishi, sog'lom barkomol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Shuning uchun ham yoshlarga ta'llim-tarbiya berish, ularni zamon talabiga javob beradigan, yuqori malakali ongli mutaxassislar qilib tayyorlash uchun mamlakatimizda yetarli shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ta'llim sohasidagi islohotlarning dastlabki bosqichida ikkita asosiy qonuni O'zbekiston respublikasining "Ta'llim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qonunlari qabul qilingan. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'llim

muassasalarida zamonaviy pedagogik tchnologiyalarni yaratish va ulardan amaliyotda keng foydalanishga erishish. "Ta'lim-fan-amaliyot" integratsiyasining ta'lim tizimidagi samarasiga alohida e'tibor qaratilgan. Qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning milliy modelidagi bosh muddao ham barkamol avlod tarbiyasi, mustaqil va erkin fikrlovchi dunyoqarashi keng ijodkor shaxsni tarbiyalashdir. Insonning jamiyatda o'z o'rnnini topishi, har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakillanishi uning ta'lim va tarbiyasi bilan bog'liq. Inson bolasining shaxs sifatida shakillanishida, psixik rivojlanishida temerament xususiyatlarini shakillantirish muhim ro'l o'ynaydi.

Bugungi yosh avlod tarbiyaning yetuk insonlarga amaliy jihatdan tarbiya oluvchilarga hamisha o'rnak boladigan murabbiylargagina shunday ish olib borishi mumkinki, zamonaviy ta'lim-tarbiya ishining asosiy tomonlaridan biri ham ana shundan iboratdir.

Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllantirishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Zotan, barkamol avlod, komil insonni tayyorlash bu jamiyatimiz uchun eng muhim muqaddas vazifadir.

Shu nuqtai-nazardan olib qaraydigan bo'lsak, yoshlarimizni qolaversa, o'quvhchilarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo ularning psixologik xususiyatlarini mukammal bilishimiz darkor. Chunki inson psixologiyasi juda murakkabdir.

Inson bolasining shaxs sifatida shakllanishi, psixik rivojlanishida, temperament va xarakter xususiyatlarini shakllantirish muhim rol o'ynaydi. O'quvhchilar davri o'zining serqirraligi bilan boshqa davrlardan farqlanadi. Maktab, kollej, litsey o'quvhchilarini komil inson bo'lishi uchun ularning chinakam inson bo'lishi ta'lim va tarbiyaning eng muhim faoliyatidir. Temperament lotin tilidagi "temperamentum" so'zidan olingan bo'lib, "aralashma" degan ma'noni bildiadi. Temperament deganda biz, odatda kishining tabiiy tug'ma hissasiyatlari bilan bog'liq bo'lgan individual hususiyatlarni tushumaniz. Psixologiya tarixida temperament haqidagi dastlabki ta'llimotni qadimgi Grek olimi Gippokrat yaratgan. Gippokrat ta'llimotiga ko'ra odam tanasida to'rt xil suyuq modda bo'lib, ular safro

(grekcha sole), qon (grekcha sanguis). qora o't (grekcha melayna) va balg'am (grekcha flegma)dan iborat. Shu moddalardan biri odamda ko'proq bo'lsa u nisbatan ustun turib muayyan temperament tipini belgilaydi. Masalan safro g'olib bo'lsa xolerik tipi, qon g'olib bo'lsa sangvinik tipi kelib chiqadi. Shunday qilib Gippokrat ta'lismotiga binoan tanadagi bu moddalarning bir-biriga mutanosibligi insonning qaysi temperamentga mansubligini belgilagan. Gippokrat bu jarayonni "krasis" deb atagan. Keyinchalik bu so'z lotin tiliga tarjima qilinib temperament so'zi kelib chiqqan. Lekin bu ikki so'z bir hil "aralashma" ma'nosini bildiradi. Gippokratning tarixiy xizmatlari shundan iboratki, u odamlarning temperamentlari to'g'risida bиринчи tushunchani beradi va uning fizialogik asosini aniqlashga urunadi.

Gippokratdan so'ng temperament va uning fizialogik asoslari haqidagi mukammal ilmiy nazaryani akademik I.P. Pavlov yaratdi. Hamda bu soxada "Nerv sistemasining tiplari" nomli ta'lismotni kashf etdi. Pavlov ta'lismotiga ko'ra, temperamentlarning fizialogik negizi nerv sistemasi va uning faoliyatidir. I.P. Pavlov nerv sistemmasining kuchli qo'zg'alish, tormozlanishdan ustun bo'lgan muvozanatsiz tur (xolerik), kuchli muvozanatlashgan harakatchan tur (sangvinik), kuchli muvozanatlashgan, kamharakat tur (flegmatik), kuchsiz muvozanatlashmagan tormozlanish qo'zgalishdan ustun bo'lgan tur (melanxolik) kabi to'rtta tipni aniqlaydi. Shu qilib temperament xususiyatlari kishilarning yuz ifodalari qanday qadam tashlab yurishi va nutqida aks etadi. Kishilar to'g'risida "Jo'shqin", "Sho'x", "Qizg'in", tabiatli yoki "Yuvosh", "Bosiq", "Dangasa" deb baxo berar ekanmiz bu so'zlarning hammasi temprament xususiyatlariga tegishlidir. Kishilarning psixologik sifatlari ularning faoliyatidan uzilgan bo'lmay aksincha ularning fikr yuritishida, diqqati va irodasida, barcha fe'l-atvorida o'z ifodasini topadi.

Xolerik tez shiddatkor, ishga nihoyat kuchli havas bilan beriladigan, qobiliyatli, ildam va chaqqon, lekin vazmin emas, hissiyotlari tez va kuchli qo'zg'aluvchan. Gap so'zida , harakat va imo ishoralarida mazmun juda aniq ifoda qilinadi. Kuch g'ayrati o'ziga sig'may ketadi, u o'tta shoshqoloq kam o'ylab tez ishga kirishadi, o'zini hamma vaqt haqli deb biladi. Ular o'z bilganidan qolmaydigan, yo'l qo'ygan xatolarini tan olishni istamaydigan shaxslardir. ularning intilishlari, qiziqishlari barqaror, o'z qarorida qatiy va mustaxkam turadi, tanbehlarni ko'tara olmaydi. Xolerikda yuqori darajadagi

faollik va tezkorlik sifatlari mavjud bo'lib, ularning nutqi tez va baland, his-tuyg'ulari, harakatlari ma'noli va mimikaga boy bo'ladi. Xoleriklar boshqa insonlar bilan muloqotda sabirsiz bo'lib, tez qizishib ketadilar, his-tuyg'ularini tutib tura olmaganlari sabab atrofdagilar bilan tez-tez janjalashib turadilar, bu ularni bir jamoada uzoq vaqt ishlay olmasliklariga sabab bo'ladi. Xolerikning Sangvinikdan farqli tomoni shundaki, nerv jarayonlarida muvozanatlashishning yo'qligidir. Pavlov xolerik temperamentli kishilar qiyofasini (Jangovor, jo'shqin, onson va tez ta'sirlanadigan tip)²⁰ deya ta'riflaydi. Mashhur pedagog A.S.Makarenko ham "Pedagogik poema" nomli kitobida kolonyada yashaydigan qizlardan biri haqida shunday deb yozadi. (U ichib mast bo'lardi-da, bir daqiyqaning ichida do'stlik, muvaffaqiyat, osoyishtalik, yaxshi kun, orzu-niyat, porloq umidlar kabi eng yaxshi narsalarini poymol qilib tashlar edi)²¹.

Yuqorida keltirilgan temperament hususiyatlardan kelib chiqqan xolda insonlarni o'zlariga mos kasblarga yo'naltirish mumkin. Masalan: xolerik tipli kishilarda hissiyotlar kuchliligi, ularni ifoda etishdagi mimika va hatti harakatlarning o'ta aniqligini, hamda ulardagagi ko'tarinki kayfiyatni inobatga olib bu toifadagi shahslardan aktyor va aktirisalar chiqishi mumkin deb ayta olamiz. Chunki ular ishga juda tezlik bilan kirishadi va qisqa vaqt ichida moslashadi. Ulardagi ko'tarinki kayfiyat tomoshabinlarni o'ziga tortadi. Mimikaga boy harakatlar esa ijro etilyotgan ro'lni mukammal chiqishi ta'minlaydi.

Sangvinik temperament - bu toifadagi kishilarga huzur-halovat ko'rishga intilishi kuchliligi, ildam, chaqqon, serxarakat bo'llish xosdir. Sangvinikdagi psixik jarayonlar xolerikdagi singari tez o'tadi. ularning kayfiyati va mayli o'zgaruvchan bo'lib, bir kayfiyat bir zumda o'ziga teskari bo'lgan ikkinch bir kayfiyat bilan almashinib turadi. Sangviniklar tevarak atrofdagi voqealardan tez ta'sirlanishadi amimo muvafaqiyatsizliklar, ko'ngilsiz voqealar ularni uncha qattiq xafa qilmaydi, hissiyoti tez qo'zg'aladi lekin uzoqqa cho'zilmaydi. Bu kabi insonlar ko'ngliga yoqqan ishni qiladi. O'zini va o'zgalarni hurmat qilish, atrofdagilar bilan tezda do'stlashish ular uchun xos. Ular ishonuvchan, ularga tasalli berish oson, u ochiq ,shirin so'z,

²⁰ Boymurodov N. "Amali psixologiya". "Yangi asr avlod'i", 2008,236-b.

²¹ Boymurodov N. "Amali psixologiya". "Yangi asr avlod'i", 2008,237-b.

raximdl ulfatchilikni sevadidan insonlardir. Ular ko'pincha jiddiy, ishga tez va g'ayrat bilan kirishishlariga qaramay undan tez soviydi, jahli tez chiqadi va tez qaytadi. Ular va'da beradishadiyu bazan bajarishni unitishadi, reja tuzadi lekin undan tez voz kechadi. Bu temperamentdagi insonlarni intizomga chaqirish oson, u diqqatini tez to'playdi, aqli tez ishlaydi. Malakalarni tez o'zlashtiradi, har qanday ishga qatnashish uchun doim tayyor turadi. Ko'pincha birqancha vaziyfalarni birdaniga bajarishni bo'yniga oladi. Lekin har bir ishga ishtiyoq bilan tez kirishgani singari, boshlagan ishidan tez qaytish extimoli ham mavjud. Sangvinikda qat'iy maqsad, chuqur fikir, ijodiy faoliyat bo'limgan taqdirdagina unda, yuzakilik va beqarorlik paydo bo'ladi.

Yuqoridagilar sangivinikning murabbiylik jarayonida anchagina asqotadi. U o'zining barcha imkoniyatlarini ishga solib sportchiga tehnik malakalarni sabr bilan o'rgatadi. Undagi kayfiyat va mayilni o'zgaruvchanligi juda kerakli chunki, murabbiy sportchiga tanbehni ham bergani kabi uni o'z vaqtida rag'batlantira oladi. Sportchining kayfiyati yo'q vaqtida tushkun vaziyatdan mohirlik bilan ko'tarinki kayfiyat orqali olib chiqishni yaxshi uddalaydi. Shu boisdan sangivinikdan oliy toifali murabbiy chiqishi mumkin.

Flegmatik temperamentli insonning harakatlari sust, o'zi og'ir vazmin, yuvosh bo'lib, hissiyotga tez berilmaydi, barcha harakatlari salmoqli, hissiyotlarini tashqi ifodasi juda kuchsiz, o'zlarini og'ir arzholini hadeb aytavermaydigan, azob-uqubatlarni sekin o'tkazadigan shaxslardir. Ular o'zlarini bemalol tuta oladi va buning uchun ulardan xech qanday jismoniy kuch sarf qilinmaydi. Flegmatiklar hamisha xotirjam, xatti-harakatlarida vazminlik, xulq-atvorida tirishqoqlik doimo ustun turadi. O'z faoliyatlatlri uchun darhol qaror qabul qila olmaydilar, shuning uchun ular yetti o'llchab bir kesadiganlar toifasidandir. Ularning sustligi o'rnnini ishga bo'lgan serhafsalaligi bilan to'ldirish mumkin.

Shuning uchun ular sermahsul ishlashga qobiliyatli kishilar hisoblanadi. Bu tipdag'i insonlardan ko'pchilik hollarda juda yaxshi Sudiyalar va Diplomatlar chiqadi. Flegmatikdagi og'ir vazminlik hissiy holatlarni tashqariga sezdirmaslik sezgirlik va sinchikovlik kabi hislatlar qonun sohasidagi shahslarga juda zarur. Chunki ular hissiyotlarga berimasligi, barcha fuqarolarni qonun oldida tengligini inobatga olib adolatlari hukum chiqarishi lozim.

Melanxolik temperament- hissiyotning sekin, lekin kuchli qo'zg' aluvchanligi va barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Melanxoliklar barqaror va davomli bir kayfiyatga moyil bo'ladir, lekin hissiyotlarining tashqi ifodasi juda zaif bo'ladi. Melanxolik temperamentli odamlar sustkash bo'ladi. Ular ishga birdan kirishmasligi mumkin, lekin bir kirishsa, boshlagan ishini oxiriga yetkazmay qo'ymaydi.

Melanxoliklarga ulardagi noxush hislarni yoqimli hislarga nisbatan tez paydo bo'lishi va uzoq davom etishi va arazchilik tabiiati xos, kek saqlash ular uchun odat tussiga kirgan bo'lishiga qaramay o'zaro munosabatlarda ular samimiyl. Melanxolik tipiga kiruvchi shahslar hamma ishlarini hayolan rejalshtirishga urunadilar ammo kamharakat, juratsiz bo'lganliklari sababli amalda bajarishmaydi. Melanxolikni tasavur olami juda keng, u hayolan xech kim bajara olmaydigan ishlarni bajaradi. Ko'pincha o'y hayollar og'ushida bo'lib, o'zini aynan shu muhitda yashayotganday ta'savvur qilqdi. Melanxolikni bir joyda o'tirib ijod qilishni xush ko'rishini, shovqin suronli, gavjum odamlar davrasiga toqati yo'qligini inobatga olib ularidan yaxshigina yozuvchi va rassomlar chiqishi mumkin.

Temperament insonni faollik, his-tuyg'u (emotsionalik), faoliyatining tempi va ritmi tomonidan xarakterlaydi. Yomon yoki yaxshi temp erament bo'lmaydi. Shuning uchun inson qanday temperamentga mansub bo'lishidan qatiy nazar, turli faoliyat yo'nalishlari bilan shug'ullanib katta yutuqlarga erishishi mumkun. Ma'lumki, har bir inson tokrorlanmas shaxs hisoblanadi. Shuning uchun uni yuqoridagi temperament tiplaridan biriga kiritish hamisha ham to'gri bo'lavermaydi. Ikkinchidan ayrim odamlarning shaxsiyoti tipdan tashqari ikki va undan ko'proq tipning belgilariiga ega bo'ladi. Shunga muvofiq shaxsda xolerik va sangvinik, melanxolik va flegmatik tiplar xususiyati aralash tarzda uchraydi. Temperament turlari sof holda bo'lmaydi ya'ni sof xolerik, sof sangvinik, sof flegmatik, sof melanxolik holatda. Insonda qaysi xildagi temperamentning xususiyatlari ko'proq namoyon bo'lsa, shunga qarab uni u yoki bu tipga mansub, deb ataymiz. Masalan serharakat, serg'ayrat, tinib-tinchimas, hamma narsani biladigan shaxslarni xolerik temperamentli. Beg'am, beparvo, kamharakat shaxsni flegmatik temperament deb bilamiz. Shunday qilib, temperament sifati shaxsning ko'zga yaqqol tashlanib turadigan individual psixologik

xususiyati bo'lib, xar bir odamning qaysi temperament tipiga mansubligini aniqlashning juda kata amaliy ahamiyati bor. Birinchidan temperamentni bilish shaxslararo munosabatlarda muhim ijobjiy ro'l o'yinaydi, ikkinchidan, yosh avlod ta'lif, tarbiyasini davr talablari asosida tashkil etishda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan qaysi temperament yaxshi, qaysisi yomon, degan masala qo'yib bo'lmaydi. Har bir shaxs o'z temperamentining yaxshi va yomon tomonlarini anglab yetishi va ularni o'z irodasiga bo'yundirib, idora qilishga o'rganishi kishining o'z xarakatlarini tarbiyalashga doir vaziyfalarning eng muhimi sanaladi. Albatta biz temperamentning barcha xususiyatlari qanday belgilangan bo'lsa, shundayligicha qolaveradi degan fikirdan yiroq bo'lishimiz kerak. Temperament ham mutloq o'zgarmaydigan narsa emas. Ko'pincha insonlarning yoshi ulg'aygan sari, turmush tajribasi oshgan sari temperamenti ham o'zgaradi. Lekin temperament kishining alohida psixik xususiyatlari jumlasidan bo'lib, har holda ancha barqaror bo'lgan sifatdir. Istalgan fizialogik funksiyani shakillantiradigan darajada takrorlash organizimning bialogik adaptatsiyasini ta'minlagan holda qisman nerv jarayonlarining xususiyatlarini ham o'zgartirish mumkin. Inson o'zi istasa, temperamentga xos bo'lgan ba'zi xususiyatlarni o'zgartirishi o'z temperamentini qo'lga olishi mumkin. Bu narsa uning ongi va irodasiga bog'liq bo'ladi. Lekin albatta, har bir inson o'z temperamentini tamomila yo'qotib butunlay o'zgartira olmaydi, lekin uni idora qiladi va qisman o'zgartira oladi. Temperamentni yaxshi tomonlarini o'stirishda eng muhimi kishi irodasini mustahkamlashdir. Irodani mustahkamlash uchun eng muhimi kishiga g'oyaviy-siyosiy, manaviy tarbiya berish milliy istiqlol tushunchalarini ongiga singdirish muxtasar qilib aytganda, mustahkam va ijobjiy xarakterni tarbiyalashdir. Ularning barchasi tarbiyaga, shaxsning xohshiga, uning g'oyalariga, qanday maqsad bilan yashashiga bog'liqdir.

Keltirilgan temperament tiplarini kasblarga bog'liqligini hisobga olgan holda, boshlang'ich kasbga yo'naltirishga quyidagi maqsadli ishlarni amalga oshirish orqali erishish mumkun.

-o'quvchilarni mavjud kasb turlari bilan tanishtirish.

-kasbning asosiy jihatlari haqida aniq tasavvur shakillantirish.

-muvaffaqiyatga erishish uchun ma'suliyat va tartiblilik kabi fazilatlarning ahamiyatini tushuntirish, hozirgi zamon kasblari mazmunini va ahamiyatini tushunishlari uchun sharoitlar yaratish.

-o'quvchilarni kasb-hunarni mustaqil tanlashlari uchun kasbga bo'lgan qiziqish, qobiliyatini rivojlanтирish.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda avvalambor, har bir o'quvchining xoxish istaklaridan kelib chiqqan holda mактаб, oila, va mahalla o'zaro hamkorlik asosida o'quvchilarga har bir kasbning mazmun mohiyatining to'g'ri tushuntirishimiz, ularga yoshlikdan boshlab, kasb-hunar haqida, har bir kasbning turlari, asosiy jihatlari haqida tasavvurlarni shakillantirish va har bir kasbning jamiyatda tutgan o'rnini tushuntirishimiz, hamda yoshlarning o'z kasblarini tanlashdagi qarorlarini qo'llab quvvatlashimiz kerak.

Donolarning bir gapi bor "Inson sevimli kasbi bilan shug'ullansa unda bir kun ham ish kuni bo'lmaydi" sevimli kasbi uning hayoti mazmuniga aylanadi. Zero tanlagan kasbimiz hayot yo'limiz bilan bog'liq ekan xar birimiz o'z temperamentimiz va qiziqishlarimizdan kelib chiqib kasb tanlashimiz maqsadga muvofiq.

Ma'naviyatning shakllanishida tarixiy xotiraning o'rni

*Nigora G'ofurjonova,
Uchqo'rg'on tumani 33-umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Bugungi kunda tobora rivojlanib, insoniyat ongi va qalbiga kirib borayotgan ommaviy madaniyat o'zining ijobiy ta'siri bilan bir qatorda salbiy ta'sirini ham namoyon etmoqda. Binobarin, global ahamiyat kasb etayotgan ushbu jarayon mamlakatlarning milliy chegaralarini yuvilib ketishiga, ularning tarixi, milliy madaniyati va qadriyatlarining yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'lmoqda. Zero, "ommaviylashish" yoshlarga xos odatlardan bo'lib, bu jarayon ularning ruhiyati va dunyoqarashiga tez singadi, chunki yomon odatlar hamma vaqt yuqumli bo'lgan. Ularni yuqtirmaslik uchun esa kuchli maskuraviy immunitet darkor bo'ladi. O'tganlarni xotirlamaydigan xalqning ertasi yorug' bo'lmaydi. Agar millat o'zining kelajagini porloq ko'rmoqchi bo'lsa, uning xotirasi uyg'oq bo'lmos'i shart.

Boisi har qanday xalq va millat kechagi hayotidan o'zining, o'zi bosib o'tgan og'ir va mashaqqatli kunlaridan, tarix sinovlaridan zarus xulosa va saboqlar chiqarmog'i lozim".

O'rta asrlardagi Sharqning buyuk mutafakkirlari al-Kindiy, Zakariyo ar-Roziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Faxriddin Roziy, Jaloliddin Davoniy, Abu Ali ibn Sino va boshqa ko'plab mutafakkirlar fanning turli tarmoqlariga, shu jumladan, "ong" tushunchasining mazmunini, matkriya bilan ongning nisbatini xissiylik va ratsionallikning nisbatini tushunishga, ma'naviyat elementlarini rivojlantirishga, bilish nazariyasiga o'z davrlari fani rivojlanishi darajasida kelib chiqqan holda katta hissa qo'shdilar.

Ilk Sharq uyg'onish davrining qomusiy allomasi Abu Rayxon Beruniy (973-1048) o'z asarlarida ong va aql masalalariga katta e'tibor bergen. U odam miyasi va besh xissiy organini o'zaro bog'langan, deb hisoblab, ularga katta ahamiyat bergen. Beruniy fikricha, har bir tuyg'u muayyan qo'zg'atuvchilar turiga munosabat bildirishga mo'ljallangan. "Ko'rishni qo'zg'atuvchi yorug'likdir... Eshitishni qo'zg'atuvchi tovush bo'lib, uni havo unga yetkazadi... Hid bilishning qo'zg'atuvchisi hid bo'lib, uni burunga havo olib boradi... Ta'm bilish xissini qo'zg'atuvchi (har xil) ta'm taomdir. Beshinchи tuyg'u sezgi bo'lib butun tanani qamrab oladi. U barcha a'zolar va organlarga xos", - deydi alloma. Umuman olganda, Beruniy inson tomonidan ilmiy bilimlarga erishish yo'lini umumlashtirib: "Bu xissiy idrok qilish ma'lumotlardan foydalangan aqlning yutug'idir", - deb qayd etadi.

Darhaqiqat, mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarimizni tiklashga alohida e'tibor qaratildi. Bundan ko'zlangan yagona maqsad esa ertangi kunimizning egalari bo'lmish yoshlarni yuksak intellektual salohiyatl, barkamol shaxs qilib tarbiyalashdir. O'z navbatida yoshlarda vatanparvarlik ruxini uyg'otish, eng avvalo, ularning ma'naviy dunyosini shakllantirish masalalarining qanchalik samarali xal etilishiga bog'liq. Shuning uchun ham xozirda yoshlarda tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirish muammosini o'rganish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ta'lim sohasidagi islohotlar taraqqiyoti omili

*Sadoqat Qirg'izova,
To'raqo'rg'on tumani 38-umumta'lismaktabi
bosholang'ich sinf o'qituvchisi*

Istiqlolning ilk kunlaridanoq ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodga g'amxo'rlik ko'rsatishga katta e'tibor qaratildi. Ta'limgiz tizimida asrlarga tatiflik islohotlar amalga oshirildi. Birgina maktab ta'limi rivojlantirish davlat umummilliy dasturi asosida mamlakatimizdagi deyarli barcha maktablarda bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Chekka hududlardagi ta'limgiz muassasalariga ham zamonaviy kompyuterlar, o'quv-laboratoriya jihozlari kirib bordi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, madaniyat va ma'rifat maskanlari soni yildan-yilga ortib, ularda yoshlarning bilim olib, kasb-hunar egallashlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Bu boradagi samarali ishlar natijasi o'laroq kelajakda mamlakatimizni rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rinni egallashining tayanchi bo'lishi ko'zda tutilgan zamonaviy fikrlaydigan, yuksak intellekt va salohiyat sohibi bo'lgan barkamol avlod kamol topib bormoqda. Ayni shu barkamol avlodning globallashuv jarayonlari bilan hamohang tarzda sodir bo'layotgan murakkab muammolarni ilmiy asoslangan, vatanimiz manfaatlariga mos, oqilona tarzda hal qilish ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirishlari ham dolzarb ahamiyatga egadir. Ijodiy yaratuvchanlik va innovatorlik xususiyatlarini o'zida shakllantirgan va kamol toptirgan avlodning intellektual salohiyat sohibi bo'lishi esa ular faoliyati natijalarining yuksak ma'naviy va ahloqiy negizlar uyg'unligi asosida vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. Bu esa globallashuv jarayonlarida ham asl o'zlik va ma'naviy-ilmiy qadriyatlar asosida innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi avlodning kamol topishiga juda katta poydevor yaratib, umuminsoniy mezonlarni o'zida mujassamlashtirgan, insoniyat oldida yuksak mas'uliyatni his qiladigan innovatorlarning katta hamjamiyatini vujudga keltiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ta'limgiz sohasiga ham tegishlidir. Bugungi kunda respublikamizda ta'limgiz sohasining huquqiy asoslari yaratilgan, ushbu sohadagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmokda. Qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'limgiz to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ga asosan oly o'quv yurtlarida tub islohotlar amalga oshirilmokda. Xususan, Respublikamizda talabalikka qabul kilish, o'quv jarayonini tashkil kilish, talabalarning bilim darajasini baholash xalqaro andozalarga moslashtirilgan.

Oly o'quv yurtlarida ta'limgiz islohotlarining muhim yo'nalishlaridan biri – bu iqtidorli talaba yoshlarni aniqlash va ularning har tomonlama kamolotga erishishlarini ta'minlashdan iborat. Mamlakatning intellektual salohiyati ham bevosita iqtidorli yoshlarga bog'liqidir. Darhaqiqat, yoshlarni tarbiyalash, ularga bilim berish, fan yutuqlaridan xabardor qilish, bozor iqtisodiyoti

munosabatlariga mos bo'lgan kasblarga o'rgatish natijasida ularning intellektual salohiyati shakllanadi. Sifatli oliv ta'lim orqali yoshlarning kasbkorlik qobiliyati ro'yobga chiqadi, rivojlanadi, yuksaladi va undan samarali foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama yetuk shaxslar etib voyaga yetkazish uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalgga oshirish davr talabi bo'lib qolmoqda. Chunki, har qanday mamlakatning quadrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita uzlusiz ta'lim sifatiga bog'liq. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ijodkor, ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishda va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ilmiy, metodologik, nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Demokratik, huquqiy davlat qurish yillarida xalqimizning azaliy va abadiy qadriyatlari, betakror milliy urf-odatlari va an'analarini, o'ziga xos odob-ahloqini tiklash, qaror toptirish hamda ularni zamonaviy mazmun-mohiyat bilan boyitish va takomillashtirish uchun ko'plab ilmiy-amaliy ishlar qilindi. Mamlakat istiqboli va millatimiz kelajagi hisoblangan yoshlarni tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish, ularning intellektual imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armalarining amaliy faoliyati ham e'tiborga sazovordir.

Shaxs – kadrlar tayyorlash milliy modeli tizimini vujudga keltiruvchi asosiy tarkibiy qismi bo'lib, yoshlarning uzlusiz ta'lim tizimi, intellektual va ma'naviy-ahloqiy, siyosiy-huquqiy tarbiyasi bilan bog'liq barkamol shaxsni shakllantirishga davlat siyosati sifatida qaralmoqda. Bu yerda fuqaroning asosiy konstitutsiyaviy huquqi ilm olish, kasb-hunar egallash, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual rivojlanishi, kasbiy mexnat huquqlarini amalgga oshirishni har bir shaxs uchun yaratishni ko'zlagan davlatgina siyosiy-huquqiy jihatdan faol barkamol avlodlarni tarbiyalashga erisha oladi.

Milliy g'oyaning ijtimoiy funksiyalari

*Odina Umarova,
To'raqo'rg'on tumani 23-umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Asosan har qanday mafkura muayyan g'oyaga ishontirish, uyuşhtirish, safarbar etish, ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish, g'oyaviy tarbiyalash, g'oyaviy immunitetni hosil qilish, harakat dasturi bo'lish

Labi asosiy vazifalarni bajara olsagina, amaliy samara berishi mumkin.

O'zbekiston davlati jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini topib bormoqda. Har qanday davlat yangi vazifalarni hal qilishga kirishar ekan, o'z tarixiy tajribasiga tayangan holda ish suritadi, taraqqiyot yo'llarini belgilaydi. Bu sababli ham bugun qaytadan kashf etilgan XIX asr oxiri XX asr boshlari tarixi biz uchun g'oyat ahamiyatlidir. Chunki, aynan shu davrda o'l kamiz tarixida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida keng islohatlar dasturini olg'a qurgan jadidchilik harakati vujudga keldi. Kishilik jamiyat mafkurasiz vashay olmagani kabi, O'zbekistonda ham jamiyat o'z milliy mafkurasiga ega bo'lishi tabiiy bir holatdir.

Sovet tuzumi davridagi kommunistik mafkura xalqimiz tabiatiga sira mos tushmas edi. Maqsad-mohiyati bilan bu mafkura milliylikka xizmat qilmas, balki qandaydir mavhum «soviet xalqi» manfaatlarini o'zida ifoda ettirar edi. Sobiq SSSR qulashi bilan bu mafkura ham o'z-o'zidan mahv bo'lib, bu sohada hosil bo'lgan g'oyaviy bo'shlinqni to'ldirish muammosi paydo bo'ldi. Bir so'z bilan aytganda, davr ziyoqlarimiz oldiga milliy mafkurani yaratish kabi ulkan vazifalarni qo'ydi.

Bu o'rinda milliy mafkura nima? Uning asosini nima tashkil qilishi kerak? U nimaga tayanadi? kabi ko'plab savollar tug'ilishi tabiiy. Milliy g'oya hayotiy bo'lishi uchun u eng avvalo xalqning o'z tarixiy taraqqiyot tajribasiga asoslangan holda yaratilishi lozim. Aks holda u g'oya davriy-o'tkinchi bo'lishi mumkin. O'zbek xalqi o'z tarixida ko'plab davlatlar qurgan, juda ko'p dirlarni boshidan kechirgan xalq. Xalqimiz orasidan yetishib chiqqan buyuk allomalar jahon falsafiy g'oyalari rivojiga muhim hissa qo'shganlar. Bu bois ham biz bugun milliy mafkurasini yaratish haqida so'z yuritganimizda, avvalam bor xalqimizning boy o'tmishtajribasiga murojaat qilamiz.

Avvalam bor milliy mafkuramiz jamiyatimiz oddiy kishilarini manfaatlarini o'zida ifoda etmog'i darkor. Milliy mafkuramiz oldiga qo'ygan talablardan asosiysi, u O'zbekiston xalqini mustaqillikni mustahkamlash, jahoning ilg'or mamlakatlari qatoriga qo'shilish, o'zligini anglash kabi maqsad va vazifalarni qamrab olishi kerak. Mafkuramizning asosiy ahamiyatli tomoni yana shunda bo'lishi kerakki, jamiyatimizning turli ijtimoiy qatlamlari, guruhlari, turlicha

e'tiqod va dunyoqarashdagi kishilarni yagona buyuk maqsad sari yo'naltiruvchi g'oya bo'lmos'i lozim.

Sovet maskurasiga ko'ra, kishilarning ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqod va dunyoqarashiga qarab ularga bo'lgan munosabat belgilanar edi. Bizning maskuramiz bunday qusurlardan holi bo'lmos'i kerak.

Milliy g'oya va mafkuraning shakllanishi – fikr qaramligiga, tafakkur qulligiga barham beradi, erkin fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga olib keladi. Shu orqali jamiyatning har bir fuqarosi o'z huquqidan to'la foydalana oladi, burchlarini, mas'uliyatini to'la anglab, ongli ravishda bajaradi, natijada g'oya va mafkura bilan qurollangan shaxslarning harakati tufayli qonun milliy huquq ustuvorligiga erishadi. Milliy mafkuramizning mag'zi, u xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'naltiruvchi bayroq sifatida O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur iftihorini, qudratini, orzu intilishlarini mujassamlantiradigan ulug' kuchdir. Chunki, hozirgi rivojlanish jarayonida biror-bir g'oyasiz maqsadga erishish qiyin. Bizda bu milliy g'oya va mafkura bo'lsa, uning mag'zi-maqsadimiz huquq bilan mustahkamlanishi esa unga erishish yo'lini ta'minlaydi. Yurtboshimiz ham «bu borada boshqa muhim yo'nalish va vazifalarni inkor etmagan holda, avvalo, aholimizning faolligi, siyosiy va huquqiy onggini oshirish bo'yicha qilayotgan ishlarni samarasini yanada kuchaytirish masalasi doimiy kun tartibida turishi zarur»ligini uqtiradi. Milliylik — bu cheklanish, o'z qobig'iga o'ralib qolish degani emas. Bu ilg'or g'oya va mafkuralar ideali, obro'si boshqa millatning ana shunday fazilatlar bilan to'ldirilishidir. Zero, g'oya va mafkura o'z mohiyatiga ko'ra bir xil bo'lsa-da, har bir millat o'sha g'oyani turlicha talqin etadi. Demak, g'oya qanchalik milliylashsa, uning yangi-yangi qirralari ochiladi va jamiyat milliy mafkurasi uchun huquqiy zamin yaratadi. Vaholanki, milliy mafkura — jamiyat miqyosidagi ishlarni tartib-intizomga solib turuvchi tuzuklardir.

Demak, g'oya bu kishining ichki kechinmalari asosida shakllanadi va u har bir shaxsda diniy g'oya, mehnatga muhabbat g'oyasi, vatanparvarlik g'oyasi va hokazo g'oyalar bir butun mafkuraga aylanib, o'sha shaxsning yo'lchi yulduzi bo'lib qoladi. Shuning uchun ham bu o'rinda, ayniqsa yoshlarda maqsadli g'oyaviy mafkurani, ya'ni shakl-shamoyillarini ishlab chiqib, tadbiq etish zarurdir.

Markaziy Osiyoda ilm-fan taraqqiyoti

Boburjon Yodgoraliyev,

Nam DU Tarix yo'nalishi 4 kurs talabasi

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilg'or ilmiy qarashlari va asarlari Yevropada ilm-fanning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Yevropaliklar Albaron (Al-Beruniy), Avitsenna (Ibn Sino), Al-Ferganus (Al-Farg'oniy), Ulug'bek va boshqalarning ilmiy merosini chuqur o'rgandilar, ularning an'analarini davom ettirdilar. Buyuk italyan mutafakkiri Dante Alegori o'zining «Illohiy komediya» (XVI asr) asarida Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlarni jahonning buyuk allomalari qatoriga qo'ydi va ulug'ladı.

Markaziy Osiyo olimlarining jahon fani rivojiga qo'shgan hissalari matematika, algebra, astronomiya, mineralogiya, geodeziya, geografiya, meditsina, tarix, tilshunoslik, mantiq, falsafa rivojida yaqqol ko'zga tashlanadi. Muso al Xorazmiy matematikaning yangi sohasi bo'lgan algebraga asos soldi. Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asari bilan meditsinani ilmiy asosga qo'ydi va uning asarlari Yevropada ko'p asrlar davomida muhim qo'llanma bo'lib keldi. Mirzo Ulug'bekning astronimiyyaga oid «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asari fanga qo'shilgan muhim hissa bo'ldi. U hozir ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Bu tadqiqotlarning barchasining zaminida inson aqli zakovati, jamiyat va davlat taxlili masalasi yotgan.

Mayjud adabiyotlarda ta'kidlanishicha, Yevropada fanning alohida faoliyati shakli sifatida rivojlanishi XVI- XVII asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda Iogann Kepler, Galileo Galilei, Jordano Bruno, Isaak N'yuoton asarlari vujudga keldi. Buyuk ingliz mutafakkiri Frencis Bekon, frantsuz olimi Rene Dekart ilmiy bilish metodlarini ishlab chiqdilar²².

Markaziy Osiyodan inson va tabiatga oid ijtimoiy falsafiy qarashlar "Avesto"da xikmat maqol va rivoyatlarda o'z ifodasini topgan. Qadimgi yunonlarning Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalari ilmiy-madaniy sohalardagi aloqalari uchun keng yo'l ochib bergen edi. Ayni paytda bu aloqalar qadimgi Yunonistondagi ijtimoiy falsafiy bilimlarning rivojlanishi uchun ham qulayliklar yaratgan. Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda Evilet, Suqrot, Aflatun, Protogar, Geraklit, Arastuning inson davlat, jamiyat, xaqidagi bilimlarning rivojiga oid ta'limotlarini alohida ta'kidlash lozim. Qadimgi yunonlarga xos izlanuvchanlik xurfikrlik, ko'plab ijtimoiy falsafiy oqimlarning, to'garak va maktablarning shakllanishiga olib kelgan. Antik dunyo yaratgan inson va jamiyat falsafasi Osiyo mutafakkirlarining ijodiy faoliyatida rivojlantirildi, ularning ilmiy qarashlari jamiyat inson xaqidagi fanining taraqqiyotida muxim

²² Mamatov O. Ijtimoiy falsafa.-Namangan, 2012.

rol o'ynagan. Rim imperiyasining qulashi faqat siyosiy soxadagi emas, balki ilmiy-madaniy soxalarda xam tanazzulini kuchaytirgan edi. Biroq, inson va jamiyat hayoti bilan bog'liq ta'lilotlar, izlanishlar butunlay to'xtab qolmagan. Bu davrda yaratilgan ilg'or ijtimoiy falsafiy an'analar Markaziy Osiyoda yanada rivojlandi va bu sohada yangi kashfiyotlar qilindi. IX-XP asrlarda arab xalifalari Xorun ar-Rashid, uning o'g'li Ma'mun va xorazmshoh Ma'munning xomiyligida o'sha davrning o'ziga xos fanlar akademiyalari vujudga kelgan. Xususan, IX asr o'rtalarida Bag'dodda «Bayt al-hikma» (Donishmandlar uyi), Xorazmda «Ma'mun akademiyasi» vujudga keldi. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Muso al Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Marg'iloniy va boshqalar matematika, astronomiya, meditsina, jamiyatshunoslik, fikh va siyosatga oid fanlarni rivojlantirdilar. Sharqda ilmiy ijtimoiy falsafiy bilimlarning rivojlanishi diniy aqidalarni inkor etmagani holda insonni yanada kamol toptirishga, borliq mohiyatini aql va tafakkur vositasida bilishga asoslangan edi. Sharq olimlari qadimgi yunon mutafakkirlarining ilg'or an'analarini davom ettirganlar, ilmiy bilishning yangi usullarini taklif etganlar.

Sharq falsafiy tafakkuri barkamol inson shaxsini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni yanada takomillashtirishga, tabiat va jamiyat, inson sirlarini bilish va undan oqilona foydalanishga qaratilgan edi.

Adabiyot va san'atning mutanosibligi

*Doniyor Usmonov,
Nam DU Ingliz tili yo'naliishi talabasi.*

Adabiyotimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, hozirgi davrgacha adabiyot bilan yonma-yon ko'plab yondosh sohalarning ham rivoj topib kelayotganligini ko'rshimiz mumkin.

Quvonarlisi shundaki, tariximizdagi ko'plab ijodkorlarni ijod bilan birgalikda xattotlik, tarjimonlik, musiqa kabi sohalar bilan shug'ullanib kelganliklarini guvohi bo'lamiz. Serqirra ijodkorlarimzning ibratli tomonlaridan biri shuki, ular, albatta, musiqa ilmidan xabardor bo'lib, soz chalar, kuylar yaratar edilar. Xatto ular ijodida musiqashunoslikka oid asarlar ham borligi ularning nechog'lik sermahsul ijodkorlar bo'lganliklarini isbotidir.

Bevosita Navoiy davri adabiyotining ko'zdan kechiradigan bo'lsak, bu davrda fan, adabiyot, san'at, musiqa rivoj topganligiga guvoh bo'lamiz. Birgina Hirotda Abduqodir Noyi, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy, Najmidin Kavkabiy kabi mashhur san'atkorlar etishib chiqdilar. Musiqa ilmi rivojida ham shoirlarimizning o'rni va

sizmatlari borligi quvonarli hol, albatta. Abdurahmon Jomiy, Lamoliddin Binoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabilalar musiqa bilan shug'ullanib, musiqa ilmiga oid asarlar yozdilar. Zahiriddin Muhammad Bobur "Musiqa ilmi" nomli risola bitdi, musiqa bilan shug'ullandi. Bu haqda "Boburnoma"da shunday ma'lumotlar bor: "Yakshanba kuni oyning o'n oltisida sabuhiy qilib, xushyor bo'lib, ma'jun ehtiyoq qilg'onda, Muxlo Yorak, panjgohda muhammas davrida bog'lag'on naqshini o'tkazdi. Yaxshi naqsh bog'labtur. Necha mahal edi, mundoq nimalarga mashg'ulluq qilmaydur edim. Manga ham dag'dag'a bo'ldi, bir nima bog'lagaymen. Bu taqriba bila chorgoh sovtini bog'ladim" (Z. M. Bobur "Boburnoma", Toshkent, O'zFA nashryoti, 1960.).

Navoiyning "Hamsat – ul mutaqoyyirin" asaridan ma'lumki, u musiqaga oid asar yozishni bu sahnaning mutaxasisi Ali Shohga topshirgan va u olim "Aslul usun" nomli kitob bitgan. Bu asarni ma'qul ko'rмаган hazrat Mir Murtoz, Hoja Abdulloh Marvarid Binoiy kabilarga aytib, musiqa sohasida kitob yozdirgan. Biroq bularning hech biridan ko'ngli to'limgach, uning da'vati bilan Jomiyning "Advor" nomli musiqa risolasi maydonga kelgan (Jalilov B. Navoiy va Bobur. Andijon.2008)²³.

Bizning bugungidek dorilomon kunlarda istiqlol bergen barcha imkoniyatlar zamirida komilikka yetishayotgan yoshlarimizning ijtimoiy xayoti qaysi orzu intilishlar tomon yo'nalganligi va uni maqsadli amalga oshirishda turli vositalar jumladan, madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyatini xam o'rni beqiyosdir.

Inson xazin ko'yning sexriga maxliyo bo'lib, qalbidagi barcha razilliklarni o'chirib, dilni allanechuk xis chulg'ab oladi. Qadimda tabiblar musiqa bilan ham bemorlarning dardini davolaganlar. Madaniy ma'rifiy muassasalar o'z faoliyatini amalgga oshirishda musiqani asosiy omillardan biri deb xisoblaganlarida bu faoliyatning ta'sir kuchini oshirib, insoniyatni tarbiya vositasiga aylanishini ko'zlaganlari ham ayni haqiqatdir.

Yirik ma'rifatparvar olim Maxmudxo'ja Behbudiy -"Teatr bu ibratxonadir"-deganlari ayni haqiqat ekanini ta'kidlash joiz.

Mustaqilligimiz sharofati bilan yillar davomida pok nomlariga "xalq dushmani" deya nomaqbul tamg'a bosilgan yurt fidoiylari

nomlari oqlanib, elimiz, qalbidan chuqur joy egallamoqda. Ularning boy ilmiy va ma'naviy merosini yosh avlod ongiga yetkazishda teatr, kino, muzey va kutubxonalarining xizmatlari beqiyosdir. Bu harakatlar natijasi o'laroq yosh avlod ongida tarixiy tasavvur boyimoqda, o'zbek milliy ma'naviyatining davrlar osha shakllanishi, taraqqiyoti va tanazzullarini ochiq-oydin, aniq misollar bilan obrazlar vositasida namoyish etilib, ulardan ibrat olish milliy mentalitetimizga xos sifatlarni yana bir karra yoshlar ruhiyatiga singdirilmoqda.

Oila va yoshlar tarbiyasи

Nigora Nabiyeva,

Nam DU Tarix yo'naliishi 3-kurs talabasi.

Yurtimizda shakllanayotgan Fuqarolik jamiyatni muayyan ijtimoiy makon bo'lib, u shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari mumkin qadar to'la darajada ro'yobga chiqarishga imkoniyat, shart-sharoitlar yaratadi. Unga monant tarzda qurilajak demokratik huquqiy dalatda qonun ustivor bo'lib, mazkur holat insonning o'z-o'zini kamol toptirishga hizmat qiladi. Bunday jamiyatdagi davlat qonunlari inson va fuqaro huquqlarini aslo kamsitmasligi, aksincha ularning hayotda amaliy qaror topishiga ko'maklashmog'i lozim.

Milliy tiklanish hamda milliy o'zlikni anglash haqida gap borganda mafkurachilar, eng avvalo, asosiysi oila deb hisoblanadigan qadriyatlarga tayanadilar. Oila jamiyatning eng barqaror instituti bo'lib, o'z mikroolamidan tashqarida bo'lgan barcha jarayonlarni hamda ziddiyatlarni aks ettiradi. Shunday qilib, mahalla nazarida ideal bo'lgan ayol zamонавиy inson va fuqaroni tarbiyalay oladimi yoki yo'qmi, degan masala ochiq qolmoqda.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uning qonun doiralariga amal qilish har bir shaxsning huquqiy burchidir. Zero, shaxs oilada kamol topadi, ulg'ayadi, manna shu oilada olgan bilimlari orqali jamiyatda o'z o'rnini egallaydi. Shunday ekan, har bir oilada huquqiy savodxonlikni oshirish uchun bolalarga huquqiy savodxonlikni oshirish uchun bolalarga huquqiy tarbiyani ham ota-onan tomonidan o'rgatilishi fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga katta hizmat qiladi. Buning uchun esa ota-onaning demokratik huquqiy savodxonligi bo'lishi shart.

Yuksak ma'naviyatimiz kamol topishida milliy kadriyatlar, an'analarimiz qatorida ilm ham muhim ahamiyatga ega. Shaxs va jamiyat ma'naviy kamolotini yanada yuksalishida ta'lim-tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir. Ma'naviyat xalqning, shaxsning axloqi, odobi barcha va ma'suliyat tuyg'usi, ilmi, amaliy mehnati va ijod manbasi, iste'dod va qobiliyat, iymoni, e'tiqodi, vijdoni, dunyoqarashi, maskuraviy qarashlari tiziminining yahlit birligidir. Ma'naviy yuksalish shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham havo, ham suvdek zarurdir.

Farzand tarbiyasida qo`ni-qo`slnilar ta`siri va mahalladagi muhitga bog`liqligi sababli o`zbeklar barcha davrlarda jamoatchilik sikriga tayanganlar. "Hovli olma, qo`shni ol", "Qo`shning tinch bo`lsa, sen ham tinchsan", "Qiyomat kuni qo`shnidan", degan maqollar ijtimiy muhitning inson va jamiyat hayotidagi o`rnini, ahamiyatini yuksak darajada ifodalagan hikmatlardir.

Oilaviy tarbiya — bola rivojlanishi uchun eng qulay shart — sharoitlarni yaratishga yo`naltirilgan, uni ijtimoiy hayotga tayyorlashga, har tamonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan oila faoliyatidir. Oila tarbiyasi bolaning tug'ilgan kunidanoq boshlanadi va ularning to`la mustaqil, individual va o`ziga xos bo`lguncha uzuksiz davom etadi. Ota — onalar va oilaning yoshi katta a`zolari tomonidan amalga oshiriladi. Oilaviy tarbiyada muvaffaqiyatga erishish ko`p jihatdan oilada ham ota, ham onaning bo`lishi, ularning oila tarbiyasida birdamlik va tenglikka erishishi, kuch — g`ayratlarini birlashtirishiga bog`liq.

Jamiyat taraqqiy etgan sari ma'naviy omillarning o`rni va roli ham ortib boradi. Oiladagi tarbiyaga e'tibor ham kuchayadi. Bunday xolatda muhim vazifa oiladagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, ota-onaning farzandlar oldidagi, farzandlarni ota-onal oldidagi burch va mas'uliyatini kuchaytirishdir. Bunday muhitni yaratishda jamiyat, davlat, jamoatchilikning o`rni katta. Agar ularning ta`siri yetarli bo`lmasa oilaning farzand tarbiyasidagi o`rni ham zaiflashadi.

Oilani boshqarish jamiyat xayotini boshqarishning kurtagi hisoblanadi. Oila a`zolari o`rtasidagi yaqinlik, bog`lilik, ishonch, xurmat samimiylilik, burch va mas'uliyatni xis qilish, talabchanlik, muloyimlik, bolalar ichki dunyosini shakllantirishga ta`sir etadigan ruhiy omildir.

Rivojlanishning qo'sh qanoti

Rustamjon Lutpiddinov,

Nam DU Iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi.

Ma'naviyat iqtisodiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi, rivojlantiruvchi muhim omillardan hisoblanadi. Ikkinchisi tomondan esa, ma'naviyat iqtisodiyot bilan uzviylikda rivojlanadi. Ba'zan u iqtisodiy tushkunlik davrida ham rivojlna olsa-da, uning haqiqiy yuksaklikka ko'tarilishi iqtisodiy o'sish, rivojlanish davrida yuz beradi. Bunga G'arb tarixi ham, Sharq tarixi ham guvohlik beradi. Ma'naviyat iqtisoddan uzoqlashar yoki uni unutar ekan, asta-sekin inqirozga yuz tutaydi. Iqtisod ham o'z navbatida ma'naviyatga zid yo'lga tushib qolsa, oxir-oqibar bo'hronga uchraydi. Buning sababi shundaki, jamiyat hayoti bir-biri bilan bog'liq ikki qism: iqtisodiy va ma'naviy hayotga bo'linadi. Ularni bir-biriga qarshi qo'yish, bir—birdan ajratish voqelikka zid bo'lib, oxiri muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydigan mashg'ulotdir.

Ma'naviyat va iqtisod qushning ikki qanotiga qiyos qilinmoqda. Qanolardan biri oldinroq, ikkinchisi keyinroqda bo'lsa, yoki biri uzunroq ikkinchisi qisqaroq bo'lsa, parvoz bir joyda aylanishdan iborat bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qarasak, iqtisodiyotimizning barqaror sur'atlar bilan rivojlanayotgani ko'zga tashlanadi. Ma'naviy hayotimizning ba'zi jabhalarida esa, xususan, adabiyot va san'atimizda ba'zi oqsashlar ko'zga tashlanmoqda. Shoirlarimiz va yozuvchilarimiz, teatr san'ati vakillari, rassomlarimiz va haykaltaroshlarimiz hanuzgacha zamonamiz qahramonlarining yorqin obrazlarini yaratganlari yo'q. Ba'zi asarlarda esa tadbirkorlar va savdo xodimlariga mensimay qarash, hatto ularni masxaralash holatlari ko'zga tashlanmoqda. Sho'rolar tuzumidan qolgan bunday sarqitlardan qanchalik tez qutulsak, taraqqiyotimiz uchun shunchalik yaxshi bo'ladi.

Hozirgi zamon komil inson kontseptsiyasini shakllantirishda milliy ong-milliy birlik, birdamlilik tuyg'usi shakllanishi va rivojlanishining asosi ekanligiga alohida e'tiborni qaratish lozim. Milliy ongning bu xususiyati mustaqillik sharoitida yoshlarni tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega. Milliy birlik, birdamlilik-

milliy ongning belgisi sifatida millatparvarlikni anglatadi. Milliy ongning ana shu xususiyati tusayli insonda mas'uliyat tuyg'usi shakllanadi. U o'zining ma'lum millat vakili ekanligini his etgan holda, uning manfaatlarini ongli ravishda himoya qiladi, va shu yo'lda fidoyilik namunalarini ko'rsatadi. Millatparvarlik va mas'uliyat tuyg'usi kuchli bo'lgan insongina millatning ravnaqi va istiqboli yo'lida olib borayotgan maqsadlariga erishadi. Xalq hayoti turli inqirozlarga, tanazzullarga uchramasligi uchun yoshlarda millatparvarlik va mas'uliyat tuyg'usini yanada kamol toptirishga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Yana bir ta'kidlash joizki, ma'naviyat bilan iqtisodning bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib, rivojlanib boradi. Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lshini istaymiz. Siyosatimizni shunga quramiz va uni to'la tatbiq etamiz. Odamlarimiz omilkor, salohiyatli, oqibatli, halol va ijtimoiy maydonlarda sobit turadigan bo'lsinlar.

Odam ana shu ma'naviy-ma'rifiy bilim, ko'nikma, malaka va sifatlarga ega bo'lsagina ijtimoiy taraqqiyotning bugungi kun talablari darajasidagi milliy mentalitetga Inson omiliga aylanadi. Befarq, beg'am, loqayd, temsa-tebranmas odam taraqqiyotning Inson omili bo'la olmaydi.

Iqtisodiyotning ma'naviyat bilan aloqadorligi

Soliyeva Nilufar,

Nam DU Iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs talabasi

Moddiy asossiz ma'naviy fikr yashay olmaydi. Ma'naviyatsiz moddiy asos ham rivojlnana olmaydi. Ularning birini ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi.

Iqtisodiyotning ma'naviyat bilan aloqalari juda rang-barang va murakkabdir. Iqtisodiyot ma'naviyat rivojlanishi uchun moddiy shart-sharoitlar yaratadi. Iqtisodiyot ehtiyojlari, talablari ma'naviyatga nisbatan "buyurtmachi" vazifasini o'taydi. Iqtisodiyot va ma'naviyat real inson ehtiyojlaridan, jamiyatning aniq vazifalaridan ajralib

qolsalar, o'z maqsadlarini belgilashda adashib ketadilar. Bunday hollarda iqtisod iqtisod uchun, faqat foyda olish uchun bo'lib qoladi.

Ushbu maqsadga go'yoki butun jamiyat ham, alohida inson ham bo'ysunishi, ma'naviyat esa iqtisodiyotning mafkuraviy xizmatkoriga aylanishi lozim bo'lib qoladi. Boshqachasiga aytganda, inson kamolotidan, jamiyat taraqqiyotining aniq vazifalaridan, maqsadlaridan ajralgan iqtisodiyot ma'naviyatni inkor etadi. Iqtisodiy tafakkur davr talablaridan ortda qola boshlaydi.

Insonparvarlik, halollik yetarlicha hisobga olinmagan joyda ish beruvchi ish beruvchi va ishga yollanuvchi o'rtaida ijtimoiy hamkorlik emas, qarama-qarshilik, ziddiyat, antogonizm vujudga keladi. Agar inson iqtisodiy mustaqillik mas'uliyatini his qilmasa, halol rizq izlamasa, undagi boshqa barcha yaxshi xulqlar, go'zal odob o'z-o'zidan tarovatini, samimiyatini, qiymatini yo'qotadi. Ammo, odam topganini, uyiga tashigani, faqat bola-chaqasining qornini to'ydirish dardida yurgani b-n ham ma'naviy yuksaklik kasb etmasligi aniq.

Har qanday ishda ham me'yor bo'lgani ma'qul. Inson faqat yeb, ichish, qorin to'yg'azish, boylik orttirish, yaxshi kiyinish tashvishi bilan yashamaydi. Ruhiy qashshoq bo'lgan odam yuksak ma'naviyat sohibi ham bo'lolmaydi. Ma'naviy tuban kimsa to'q, farovon, madaniy turmush kechirish me'yorlarini ham bilmaydi, kelajakni oldindan ko'rolmaydi, undaylarning iymon va e'tiqodi sust, beqaror bo'ladi. Iqtisodiyot va ma'naviyatning birini oldin, ikkinchisini keyinroq emas, balki ularni bir paytning o'zida teng rivojlantirish zarurligini qayta-qayta ta'kidlandi, ana shu nazariy qoida va yo'l-yo'riqlarni amalga oshirishda payti allaqachon yetgan. Darhaqiqat, ma'naviyatga intilish inson uchun moddiy ne'matlarni o'zlashtirish, yejish, ichish, kiyinishga nisbatan ham muhimroqdir. Chunki, ma'naviyat insonga muayyan maqsad, kelajak tomon ishonch bilan borish uchun katta umid, kuch va qudrat baxsh etadi.

Ko'plab asarlarda va inson hayotida aslida bir-biri bilan uzviy bog'langan aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy fazilatlarning, ya'ni ma'naviyatning yaxlit tizimi ekanli ham atroflicha tahlil qilib berilmoqda. Inson va jamiyat ma'naviyati mohiyat jihatdan yaqin bo'lib, o'zaro bir-birini boyitib to'ldirsa-da, lekin ular aynan teng emas.

Inson ma'naviyati millat, davlat va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismidir. Insonning ma'naviyati, jamiyatdagi ko'p qirrali munosabatlar, shart-sharoit va imkoniyatlar asosida shakllanadi va namoyon bo'ladi. Binobarin, millat, davlat va jamiyat madaniy-ma'naviy taraqqiyoti inson ma'naviy kamolotiga asos bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti va ma'naviy hayot uyg'unligi

Rustamjon Lutpiddinov,

Nam DU Iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi.

Yuksak ma'naviyat sohibi bo'lgan inson milliy, umuminsoniy qadriyatlarga qat'iy rioya etadi, iymonli, insofli, vijdonli bo'ladi, halol yashaydi, nafaqat o'z manfaati uchun, balki davlat, millat, jamiyat manfaatlari uchun ham mehnat qiladi, xayr-saxovatli, mehr-oqibatli, muruvvatli bo'ladi, o'zi mansub xalq va millatnigina emas, balki o'zga millatlarni ham hurmat qiladi. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishda sifat jihatdan yangi bosqichga o'tish ob'ektiv ehtiyoj bo'lib qoldi. Shu munosabat bilan yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini aniq maqsadli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o'tish maqsadga muvofiқ deb topildi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti mohiyat e'tiboriga ko'ra odamlarning individuallashuvini, xar bir insonning faollik darajasiga ko'ra baxolanishini taqoza etadi. Ayni chog'da bozor iqtisodiyoti inson imkoniyatlarini ro'yobga chiqazish asnosida uning ijtimoiy, siyosiy faolligiga ham yo'l ochadi. Bozordagi talab va taklif jarayonlarida mavqeni qo'ldan bermaslik ehtiyoji ham o'z navbatida odamlarning jo'shqinligi va xarakatchanligini doimiy ravishda taqoza etib turadi.

Ma'naviyati yuksak, odob-axloqli, ma'rifatli, madaniyatli kishilar elim-yurtim deb yonib yashaydi, birov larga himmatu muruvvat qilishni, yordamga muhtoj kishilarga ko'mak berish va to'g'ri yo'l ko'rsatishni o'zi uchun baxt deb biladi.

Mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yo'li va andozasi yetuk bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning boy tajribasiga va O'zbekiston xalqining milliy tarixiy merosi, tur mush tarzi, an'analari va ruhiyati xususiyatlariga tayanishi lozim. Har qanday islohotlarning muvafaqqiyati uning asosiga qo'yilgan tamal toshlariga

bevosita bog'liq. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatning o'ziga nos xususiyatlarini qamrab olgan iqtisodiy siyosat shakllanib, uning istiqbol yo'nalishlari belgilab olindi. SHunisi diqqatga sazovorki, yalpi ichki mahsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sishi an'anaviy xomashyo tarmoqlari hisobidan emas, jahon bozoridagi qulay kon'yunktura va ayrim xomashyo turlari hamda materiallar narxining yuqoriligi hisobidan emas, balki birinchi navbatda raqobatga bardoshli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlantirishni belgilab beradigan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga ta'minlanishi lozim.

Mamlakatimiz iktisodiyotining barcha sohalarida, birinchi navbatda, iktisodiyotni modernizatsiya qilish, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash, kichik biznesni rivojlantirish, ichki talabni rag'batlantirish, aholining, ayniqsa, qishloq aholisining bandlik darajasi va daromadlarining o'sishini ta'minlashga qaratilgan Inqirozga qarshi choralar dasturini hayotga keng ko'lamma tatbiq etish kelgusida barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, amalga oshirilayotgan islohotlarimizda xalqimizning bugungi va ertangi hayoti, uning ma'naviy olamiga zarar yetishiga, ijtimoiy adolat tamoyillarining buzulishiga yo'l qo'ymaslik masalasi ko'zda tutilganki, bu jarayonlar mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradi.

Axloqiy madaniyat

Soliyeva Nilufar,

Nam DU Iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs talabasi

Jahon moddiy ishlab-chiqarish tajribasi texnologiyalarni muttasil yangilab, takomillashtirib borilmasa, ilmiy-texnik taraqqiyotda ulkan yutuqlarga erishib bo'lmasligini ko'rsatadi. Bu esa inson omili, uning yuksak nafaqat texnik, balki gumanitar texnologik madaniyatiga ta'minlanganligi bilan bog'lanadi. Bunda mamlakatda ishchi-xodimlarda o'z korxonasiga fidoyilikni shakllantirish texnologiyasini misol qilib keltirish mumkin. Fidoyilik g'oyasi qanday «ishlaydi»? Buni ishchi-xodimlarning ratsionalizatorlik takliflarida, kashfiyotlarida, korxona iqtisodiyoti, xodimlar farovonligini oshirish,

ishlab-chiqarishda o'z-o'zini boshqarishdagi aniq hatti-harakatlar, yutuqlarda ko'rish mumkin.

Har qanday jamiyat va jamiyat a'zosining ma'naviy hayoti murakkab va ziddiyatligi bilan ajralib turadi. Chunki u eng avvalo shaxs yashayotgan ijtimoiy muhitga bevosita bog'liqdir va ayni paytda shu ijtimoiy muhit kishilarning ma'naviy ehtiyojini, ma'naviy munosabatlarini va ma'naviy iste'molini belgilaydi. Bu jarayonda ham jamiyatning moddiy asosi qanchalik darajada taraqqiy qilgan bo'lsa, mazkur jamiyat kishisining ma'naviy hayoti ham shunchalik darajada boy va sermazmum bo'ladi, shaxs barkamolligiga keng imkoniyatlar ochib beradi. Ma'naviy ishlab chiqarishda o'ziga xos mehnat predmeti, mehnat jarayoni, mehnat mahsuloti kabi unsurlar mavjud bo'lib, ular inson faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltiradi.

Ma'naviy ishlab chiqarishda mehnat predmeti hamma vaqt ham tabiat kodisalari va buyumlari bo'la olmasligini qayd etish kerak. Kishilar o'tasidagi ijtimoiy munosabatlar, insonning fikrlash jarayoni kabi mavhum murakkab holatlar ham bu ishlab chiqarishda mehnat predmeti tarzini bajarishi mumkin. SHuningdek, ma'naviy ishlab chiqarishdagi mehnat jarayonining o'zi, tabiiyki, moddiy ishlab chiqarish protsessidan tubdan farq qiladi.

Inson kamoloti ko'p qirralidir. Uning buyukligi, donoligi ham, birinchi navbatda, ma'naviy kamoloti darajasi bilan belgilanadi. Yetuk ma'naviyatga ega bo'lgan insongina jamiyat taraqqiyoti, fan rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan yangi muammolarni aql – zakovat bilan taxlil etadi. Ularni xal etishga o'z hissasini qo'shadi. Chunki inson o'z atrofidagi odamlar ta'sirida kamolotga erishadi. Zotan, inson jamiyatda yashab turib, undan chetda turolmaydi.

Bugungi kun kishisidagi odob, xulq – atvori qoidalari asrlar davomida tarkib topib, takomillashgan. Bu fazilatlar har bir insonning ichki va tashqi xislatlarida, o'zini tuta bilishida, xatti – harakatlarida, muomala munosabatida yani axloqiy madaniyatida o'z ifodasini topgan.

Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir.

U shaxsning o`zgalar bilan o`zaro munosabatlarida namoyon bo`ladi. Soddaroq qilib aytganda, insonning xatti – harakati, xulq – atvori va yurish – turishi va ularni doimo nazorat qila bilish darajasi, kishilar o`rtasidagi muomala munosabatidir.

MUNDARIJA

1. Milliy masifikurada tarixiy xotiraning o'rni. *Obidxon Mamatov.* 3
2. Namangan viloyati moddiy madaniy yodgorliklari. *Baxtiyor Ro'zinov.* 6
3. Huquqiy munosabatlar tushunchasi. *Akmaljon Sultonov.* 8
4. Boburning ma'naviy dunyosi. *Shohrux Kenjayev.* 10
5. Ma'naviy va huquqiy tarbiyada oilaning o'rni. *Akmaljon Sultonov.* 13
6. Bobur ma'naviyati xorijliklar nigohida. *Shohrux Kenjayev.* 16
7. Axloqning vatanparvarlik tamoyili. *Marhabo Irgasheva.* 18
8. Yurak mushagining xususiyatlari. *N.R.Melanova,
O.Z. Abdullayev.* 20
9. Sharqona axloqiy tarbiyaning tarixiy ildizlari va manbalari. *Marhabo Irgasheva.* 23
10. Stafilokokk toksinlarining biologik membranaga ta'siri. *N.R. Melanova, O.Z. Abdullayev.* 26
11. "Boburnoma"dagi toponimik ma'lumotlar. *Tohirjon Qozoqov.* 29
12. Axloqiy va ma'naviy kamolot. *Nilufar Imomberdiyeva.* 30
13. Milliy g'oya targ'ibotining ayrim jihatlari. *Saida Ismoilova.* 32
14. Alisher Navoiy ijodidagi asosiy g'oyalar. *Rahimjon Karimov,
Dilafruz Qodiraliyeva.* 33
15. Konstitutsiya - davlatning asosiy qonuni sifatida. *Komiljon Boquboyev.* 35
16. Huquqiy munosabatlar-inson ongli faoliyatining mahsuli. *Komiljon Boquboyev.* 38
17. Milliy g'oya va milliy masifikuraning tarixiy zarurat ekanligi. *Jumavoy Umarov.* 40
18. Kompensatsiya to'lovlarini tushunchasi va turlari. *Jumavoy Umarov.* 42
19. Yoshlar tarbiyasi masalalari. *Sayida Minamatova* 44
20. Musobaqaqlarga tayyorgarlik va musobaqaqlar davrida sportchilarining ruhiyatiga stressning ta'siri. *Z. Sarbarova,
G'. Abdullaev.* 46
21. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy va jismoniy barkamollikkagi g'oyalarining muştarakligi. *Z. Sarbarova* 52
22. Temperamentga qarab kasb tanash. *Z. Sarbarova* 56
23. Ma'naviyatning shakllanishida tarixiy xotiraning o'rni. *Nigora G'ofurjonova.* 63
24. Ta'lim sohasidagi islohotlar taraqqiyoti omili. *Sadoqat Qirg'izova.* 65

| | |
|---|----|
| 25. Milliy g'oyaning ijtimoiy funksiyalari. <i>Odina Umarova.</i> | 66 |
| 26. Markaziy Osiyoda ilm-fan taraqqiyoti. <i>Boburjon Yodgoraliyev.</i> | 69 |
| 27. Adabiyot va san'atning mutanosibligi. <i>Doniyor Usmonov.</i> | 70 |
| 28. Oila va yoshlar tarbiyasi. <i>Nigora Nabiyeva.</i> | 72 |
| 29. Rivojlanishning qo'sh qanoti. <i>Rustamjon Lutpiddinov.</i> | 74 |
| 30. Iqtisodiyotning ma'naviyat bilan aloqadorligi. <i>Soliyeva Nilufar.</i> | 75 |
| 31. Bozor iqtisodiyoti va ma'naviy hayat uyg'unligi. <i>Rustamjon Lutpiddinov</i> | 77 |
| 32. Axloqiy madaniyat. <i>Soliyeva Nilufar</i> | 78 |

**"Fazilatorgtexservis" xususiy bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahar, A.Navoiy ko'chasi, 72 uy.**

